2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 4 (1064), 2024-yil 6-yanvar, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

JAMOAT TRANSPORTI

arzon, qulay va xavfsiz harakatlanish vositasiga aylana oldimi?

Taraqqiyot mezonlari

O‘tgan yil yurtimiz hayotida qizg‘in davr bo‘ldi. Odamlarga qulaylik yaratish, turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan ishlar har bir yurtdoshimiz hayotida aks etyapti. Ayniqsa, ortda qolgan yil davomida bu tizim chin ma’noda isloh etilib, yangicha, zamonaviy va raqamlashgan ko‘rinishga keldi. Nafaqat poytaxtimiz, balki viloyatlarda ham yangi avtobus yo‘nalishlari harakati yo‘lga qo‘yilib, xizmat sifati ancha yaxshilandi. Yurtdoshlarimizning tizimdagi xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichi ham shunga mos tarzda oshdi.

Albatta, shahar sharoitida jamoat transportidan foydalanish ko‘pchilik uchun qulay. Har kuni o‘qishga, ishga yoki boshqa yumush bilan biror manzilga qatnaydigan odamlar uchun arzon, tezkor va xavfsiz transport vositasi zarur. Bu vazifani esa biror avtoulov jamoat transportichalik uddalay olmaydi. Qolaversa, Toshkent shahrida yengil avtomobillar soni tobora ortib, yo‘llarda tirbandlik ko‘paygan, shaxsiy avtomobilda harakatlanish qiyinlashib boryapti.

Chindan ham bir vaqtlar faqat kinolarda ko‘rganimiz avtomobil yo‘llaridagi uzundan-uzun tirbandliklar bugun poytaxtimiz uchun ham oddiy holga aylandi. Ayniqsa, ertalab va kechqurungi tig‘iz paytlarda bu tirbandliklar yanada ortadi.

To‘g‘ri, bu aksariyat rivojlangan davlatlarga xos. Toshkent shahri esa Markaziy Osiyodagi eng yirik megapolis. Aholi soni tez o‘syapti, yiliga o‘rtacha 100 mingga oshmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda poytaxtimizda 5 million aholi bo‘lib, shundan 3 millioni doimiy istiqomat qiluvchilardir. Shahrimizga kelib-ketuvchilar ham ko‘p. Odamlarning aksariyati doimiy harakatlanishda jamoat transportidan foydalanishni afzal ko‘radi. Mavjud talabni qondirish zarurati esa ko‘proq avtobus va yo‘nalishlarga ehtiyoj tug‘diradi. Ya’ni jamoat transportini rivojlantirish orqali aholining ulardan foydalanish ko‘rsatkichini oshirib, tirbandliklarni qisqartirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash kabi vazifalarga erishish mumkin.

Davomi 3-betda

Daxldorlik tuyg‘usi

TARIXIY UCHRASHUV SHUKUHI

Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar!

Hammamiz shukrona bilan kuzatgan 2023-yilning 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuv tarixiy bo‘lishi kerak, dedi Prezidentimiz majlis avvalida. Xuddi shunday bo‘ldi.

Uchrashuvda ma’naviyat masalasini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish masalasi prinsipial, qattiq qo‘yildi. Mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy ishlar mazmuni mutlaqo yangi tushunchalar bilan boyidi. Masalan, yangi O‘zbekiston yoshlari uchun ma’naviy ideal — milliy obraz, namuna berildi. “Ma’naviyat sektori”, “Amir Temur bog‘lari”, “bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolish”, “milliy g‘oyani rivojlantiruvchi dasturiy hujjat”, “uyg‘oq qalbli ziyolilar”, kabi tushunchalar har bir o‘zbekistonlik qalbida faxrni yuksaltirdi, ogohlikni kuchaytirdi.

Ayniqsa, “Konstitutsiya va qonunlarimizga zid pozitsiyalar”, “G‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi?”, “Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?” tarzida qo‘yilgan savollar bu borada qilinishi talab etilayotgan ilmiy-amaliy ishlar mavzusini belgilab berdi.

Ma’ruza barcha ziyolilar — ma’naviyat va ma’rifat xodimlari, murabbiylar, shoir-yozuvchilar, san’atkorlar, targ‘ibotchilar, mahalla faollari, tyutorlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar mas’ullariga g‘oyaviy kuch, qudrat berdi.

Yig‘ilishda ma’naviyat ishining mashaqqati ham go‘zal ifodasini topdi. “Bir kishini inontirish, ishontirish — igna bilan quduq qazishdek qiyin” ekani aytildi. Endi har kuni qulog‘iga “menga inon, menga ishon”, deb gap o‘rgatayotgan ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yashayotgan 36 million kishini inontirish, ishontirish nimaligini o‘zingiz tasavvur qilib ko‘ring. Bir narsa aniq — ish 36 million karra bo‘ladi.

Eng muhimi, muammoni yechishning ilmiy, metodologik vazifasi — inontirish va ishontirishni birga, uyg‘un olib borish tushuntirildi. Targ‘ibot-tashviqotning mana shu ikki fundamental formulasi ochib berildi. Shu paytgacha inontirish metodi bilan ishontirish metodlarining farq va xususiyatlari masalasi biror marta ko‘tarilmagan edi. Bu bizga yangi ilmiy tadqiqotlar mavzusini belgilab berdi.

Davomi 5-betda

Bugunning gapi

“QUYOSHLI XONADON”

ishonchli va barqaror energiya manbai

Bugungi kunda O‘zbekistonda nima uchun energetika tizimiga katta e’tibor qaratilyapti? Tarmoqda ilgari imkoni yo‘qdek tuyulgan yirik loyihalarga qo‘l urilmoqda? Ushbu savollar javobi oddiy — bu davr talabi, hozir zamon shiddatli, shunga yarasha ehtiyojlarimiz ham ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yangi tashabbus va g‘oyalarni amalga oshirishga undayapti. Shu bilan birga, energetika sohasini rejalashtirish rivojlanish va barqarorlikni ta’minlash yo‘lidagi milliy maqsadlarimizga bevosita bog‘liq jarayon. Ekologik toza, moliyaviy nuqtayi nazardan amalga oshirish oson, xavfsiz va ishonchli energiya manbasiga ega bo‘lish har qanday davlatning iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, bunday sa’y-harakatlar odamlar turmush tarzi yaxshilanishiga olib keladi.

Qayd etish joizki, ayni paytda butun dunyoda barqaror hamda qayta tiklanuvchi energiyalarning o‘ziga xos tushunchasi yuzaga kelgan. Barqaror energiya tugab qolmaydigan hamda yangilash yoki to‘ldirish shart bo‘lmaydigan har qanday energiya manbasini o‘z ichiga oladi.

Bundan tashqari, barqaror energiya atrof-muhitga zarar yetkazmaydi yoki zarar darajasi kam. Uning e’tiborli xususiyatlaridan yana biri — energiyani olish usullarini yaratish va mexanizmlarini qurish xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, manbalari, (shamol, quyosh, suv va kabilar) odatda bepul bo‘ladi. Bu turdagi energiya manbalari tugamasligi va deyarli hamma uchun keng tarqalganligi bilan alohida ajralib turadi.

Bu borada O‘zbekistonda ilg‘or xalqaro tajribalar qo‘llangan holda, o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish va energetika tarmog‘i yanada rivojlanishini ta’minlash maqsadida izchil hamda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Yurtimizda elektr energiyasiga bo‘lgan talabning 84,7 foizi issiqlik elektr stansiyalari, 14,3 foizi gidroelektr stansiyalari, 1 foizi blokstansiyalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Davomi 2-betda

Tahlil va taqqos

MEGA LOYIHALAR va KENG KO‘LAMLI BUNYODKORLIK

yirik sanoat korxonasi faoliyatida katta ahamiyat kasb etmoqda

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati — mis-molibden, polimetall va oltin tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash bo‘yicha O‘zbekistonda yagona va Markaziy Osiyoda yetakchi korxona hisoblanadi. Mis mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi 30 ta yirik kompaniya safidan ham shu jamiyat mustahkam o‘rin egallagan.

Kombinatda 35 mingdan ziyod ishchi-xodim ishlaydi. Yiliga 148 ming tonnadan ortiq mis katodi, 90 ming tonna rux metali, shuningdek, oltin, kumush, molibden, volfram, reniy, selen, tellur, kadmiy, palladiy kabi noyob metallar ishlab chiqariladi. 17 xil mahsulot 20 ga yaqin xorijiy davlatga eksport qilinadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining 7 foizi, eksport hajmining 15 foizi mazkur kombinat hissasiga to‘g‘ri keladi.

Kombinatda bugungi kunda ro‘yobga chiqarilayotgan istiqbolli loyihalar ko‘lami har qanday kishida hayrat va g‘urur uyg‘otadi. Shundan kelib chiqib, kombinat misolida mamlakatimizda 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha qanday odimlar tashlanayotgani haqida ma’lumot berish o‘rinlidir.

Davomi 4-betda

Dil izhori

HAYOTIM MAZMUNI

2

Yangicha yondashuvlar

SUV TEJAMKORLIGI:

AVVAL 900 LITR SARFLANGAN, ENDI 100 LITRGA TUSHDI

Hozir jahon mamlakatlarini birdek o‘ylantirayotgan, ta’bir joiz bo‘lsa, jiddiy tashvishga solayotgan global muammolardan biri suv tanqisligi masalasi bo‘lib turibdi. To‘g‘ri, mazkur muammo o‘tgan asrlarda ham insoniyatni o‘ylantirgan, ammo bizning davrimizga kelib, masala yanada keskinlashdi. Chunki sayyoramiz aholisining o‘sish tezligi oshib boryapti, demak, tabiiy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj ham shunga yarasha. Bir tomonda iqlim o‘zgarishlarining oqibatlari va global isish xavfi bor. Mavjud suv zaxiralari esa yo‘qolib, taqchillik ortib boryapti. Nafaqat ichimlik suv, balki umuman, suv zaxiralari keskin kamayishda davom etayotgani insoniyat oldiga jiddiy choralar ko‘rish vazifasini qo‘ymoqda.

Davomi 2-betda

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari, xususan, O‘zbekistonda suv kam bo‘lgan yillar tez-tez takrorlanmoqda. Agar 2000-yilga qadar har 6-8 yilda suv taqchilligi kuzatilgan bo‘lsa, oxirgi vaqtlarda bu holat har 3-4 yilga to‘g‘ri kelyapti.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 6-yanvar, 4-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangicha yondashuvlar

SUV TEJAMKORLIGI:
AVVAL 900 LITR SARFLANGAN, ENDI 100 LITRGA TUSHDI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodi asosan, qishloq xo‘jaligiga moslashgan Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv tanqisligi allaqachon sezila boshlagan. Buning oqibatida cho‘llanish, sho‘rlanish va tuz shamollari kabi hodisalar ko‘paymoqda. Kelajakda iqlimning tobora isib borishi va cho‘l hududlari kengayishi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga salbiy ta’sirning ortishi borasida xulosalar ham yo‘q emas.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda mintaqa davlatlari, xususan, O‘zbekistonda suv kam bo‘lgan yillar tez-tez takrorlanmoqda. Agar 2000-yilga qadar har 6-8 yilda suv taqchilligi kuzatilgan bo‘lsa, oxirgi vaqtlarda bu holat har 3-4 yilga to‘g‘ri kelyapti. Ekspertlarning suv resurslari tejamkorlik bilan boshqarilmasa, 2050-yillarga borib, O‘zbekiston uchun ham suv taqchilligi yuzaga kelishi mumkin, degan taxminlari bor. Buning ta’siri esa barcha sohalarda sezilishi turgan gap.

Bundan, ayniqsa, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi jiddiy zarar ko‘radi. Boisi, yurtimizda suv eng ko‘p talab qilinadigan soha agrar tarmoq bo‘lib, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlatiladigan suvning 90 foizi aynan shu soha ulushiga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda ham sezilarli suv taqchilligi mavjud. Oxirgi yillarda yurtimizda ushbu muammoga ilmiy yondashuv ortib, soha tubdan raqamlashtirilayotgani sababi shunda. Xususan, zamonaviy, tejamkor texnologiyalarni qo‘llash ko‘lami ortmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish belgilangan. Bu boradagi aniq vazifalar Davlat dasturida ham ko‘zda tutilgan.

Mavjud suv resurslaridan tejab foydalanish tobora dolzarblashib boryapti. Yurtimizda so‘nggi yillarda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektari yomg‘irlatib sug‘orishga o‘tkazilgani, 97 ming gektarda esa boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingani boisi shunda. Davlatimiz rahbari shu yilning 4-yanvar kuni qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishar ekan, bu boradagi ko‘lamni yanada kengaytirish zarurligini ta’kidladi. Ushbu yo‘nalishda yangi loyihalar, qo‘shimcha imtiyozlar belgilangan.

Harakatlar aniq hududlar bo‘yicha olib boriladi

Ana shu maqsad o‘laroq, mamlakatimizning barcha hududlarida qishloq xo‘jaligida suv tejamkorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, qator loyihalar davom etyapti. Gap shundaki, hatto qish oylarida ham qishloq xo‘jaligida ayrim agrotadbirlar o‘tkaziladi. Ulardan biri yerning sho‘rini yuvish tadbirlaridir. Bahor va qish mavsumida olib boriladigan ushbu agrotadbir tuproqdan foydalanish va uning unumdorligini oshirishda muhim sanalar ekan. Biroq tuproqda to‘plangan sho‘rlanishni yuvishning o‘zi bo‘lmaydi, buning uchun ko‘p miqdorda suv zarur. Xususan, Xorazm viloyatida 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumida 110 ming gektar maydonning sho‘rini yuvish belgilangan bo‘lib, jarayonda 752 million kub metr suv talab etilishi hisob-kitob qilingan.

Demak, jarayonda suvdan samarali foydalanish va tejamkorlikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash zarurati yanada ortadi. Shu bois, viloyatda 33 nafar mutaxassisdan iborat ishchi guruh tashkil etilib, “Bitta fermer — bitta ariq” loyihasi doirasida sug‘orish tarmoqlari xaritasi tayyorlandi.

— Mazkur xaritalar asosida barcha tumanlardagi klasterlar va fermer xo‘jaliklari ichki sug‘orish ariqlarini tozalash, betonlashtirish ishlarini olib bormoqda, — deydi Xorazm viloyati Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi Qahramon Rajabov. — Bugungacha hududlarda 233,9 kilometr ariqlar betonlashtirilgan bo‘lsa, 35 ming gektardan ortiq yer lazerli uskunalar bilan tekislandi. Bu tadbirlar suvdan tejamli foydalanishga qaratilgan. Chunki suvni iqtisod qilish zarurati, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi sohasida yuqori. Bu har qanday ekin turini yetishtirishda juda ko‘p miqdorda suv talab qilinishi bilan bog‘liq. Eskicha texnikalar, usullardan voz kechib, zamonaviy texnologiyalarga o‘tish orqali esa suv sarfini bir necha barobar kamaytirish mumkin. Masalan, sho‘r yuvish tadbirlarini olaylik. Yerning sho‘rlanishi nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki iqtisodiyot uchun ham jiddiy zarar bo‘lib, bu bevosita tuproq unumdorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omildir. Birgina misol, kuchsiz sho‘rlangan yerda 15 foiz hosil yo‘qotilsa, kuchli sho‘rlangan yerlarda bu ko‘rsatkich 70-80 foizgacha yetadi. Shu bois, qish mavsumida ham qishloq xo‘jaligi yerlarida sho‘r yuvish tadbirlari amalga oshiriladi.

Modomiki, bundan voz kechishning imkoni yo‘q ekan, demak, agrotadbirlarda maksimal darajada suvni iqtisod qilishga erishish zarur. Buning uchun esa zamonaviy usullarni keng qo‘llash samarali yechimdir. 2023-yil viloyatda 1462 kilometr ichki sug‘orish tarmoqlari va 121,1 kilometr magistral kanallarni betonlashtirish asosida suvni iqtisod qilish rejalashtirilgan edi. Bundan tashqari, “Bitta fermer — bitta ariq” loyihasi doirasida ishchi guruh tomonidan viloyat bo‘yicha dalasida suv tejamkorligini tashkil qilmagan va betonlashtirish ishlarini boshlamagan fermer xo‘jaliklari alohida nazoratga olindi. Ular o‘z mablag‘i hisobidan ichki sug‘orish tarmoqlarining 250 kilometrini betonlashtirishi reja qilingan, yil yakuniga qadar ishning 93 foizdan ortig‘i bajarildi.

Iqtisodi sarfga nisbatan yuqori

Qishloq xo‘jaligida raqamli va ilmiy jihatdan asoslangan tejamkor texnologiyalarni joriy etmasdan turib, suv muammosini hal qilib bo‘lmaydi. Mutaxassislarning aytishicha, hozir yurtimizda 3 million 200 ming gektar yerga 46 milliard kub metr suv sarflanib, shundan 60 foizigina ekinlarga yetib boryapti. Negaki, 90 foizdan ortiq ekin yerlari an’anaviy tarash usulida sug‘oriladi. Faqat zamonaviy, tejamkor texnologiyalar yordamidagina mavjud isrofgarchilikning oldini olish mumkin. Qolaversa, O‘zbekistonda yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 milliard kub metr, 2050-yillarga borib, 12-13 milliard kub metr bo‘lishi kutilayotganini inobatga olsak, suvni tejashning ahamiyati yanada ortadi.

2023-yilda Xorazm viloyatida qiymati 18,5 milliard so‘mdan ortiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilib, bu 2022-yilga nisbatan 106,4 foiz ko‘p demakdir. Bunda hududdagi klaster va fermer xo‘jaliklarining ulushi katta, albatta. Ayni paytda Xorazmda jami 4320 fermer xo‘jaligi bo‘lsa, ularning jami yer maydonlari 207 ming 118 gektarni tashkil etmoqda.

Boshqa hududlar qatori Xorazmda ham resurstejamkor texnologiyalarga talab yuqori. Shu maqsadda joriy yil viloyatdagi 41 ming 358 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarga o‘tildi. Bu orqali tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish, lazerli tekislash usullarini qo‘llash ko‘lami yanada kengaygani aytilmoqda.

— Ushbu texnologiyalar hisobiga 2023-yilda viloyat bo‘yicha 300 million kub metr suvni iqtisod qilishga erishdik, — deydi Qahramon Rajabov. — To‘g‘ri, bu Xorazm viloyati sharoitida hali juda kam, biroq eng asosiysi, natija bor. Tajriba ham to‘planyapti, asta-sekin barcha yer maydonlariga shunday zamonaviy texnologiyalar kirib boradi. Chunki bu zamon talabi, shu bilan birga, eng asosiy va kamayib borayotgan tabiiy resursdan oqilona foydalanishning muhim shartidir. Ilg‘or texnologiyalar bir qator afzalliklarga ega. Avvalo, katta miqdordagi suvni tejaydi. Aytaylik, avvallari 1 gektar yerga 900 litr suv sarflangan bo‘lsa, bugungi kunda birgina yomg‘irlatib sug‘orish orqali bu ko‘rsatkich 100-150 litrni tashkil etyapti. Ana endi oradagi farqni chamalayvering. Qolaversa, ekinni oziqlantirish ham shu usul orqali bo‘lgani uchun mineral o‘g‘it, yonilg‘i, ishchi kuchi xuddi suv sarfi kabi karrasiga tejaladi. Yana bir muhim jihati, suv va o‘g‘itning ekin ildiziga manzilli yetkazilishi hisobiga hosildorlik bir necha barobar ortishini tajriba allaqachon ko‘rsatdi. Ayni shunday usullar orqali kelgusida mamlakatimizda paxtachilikda hosildorlikni 50 sentner, g‘allachilikda 100 sentnerga yetkazish choralari ko‘rilmoqda. Buning uchun suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha kredit liniyalarini jalb qilishga qaratilgan aniq vazifalar ham belgilangan. Natijada yana qo‘shimcha 31 ming 359 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi.

Bundan tashqari, mutasaddilar oldida joriy yilda 1496 kilometr ariqni betonlashtirish va viloyatdagi har bir kanalning pasportini shakllantirish, 24 ming gektardan ziyod yerni lazer tekislagichlar bilan tekislash vazifasi turibdi. Shuningdek, jami 70 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi. Bularning hisobiga, birgina Xorazm viloyatida bu yil 1 milliard kub metr suvni iqtisod qilish ko‘zda tutilgan.

Iroda ANVARJON qizi,
jurnalist

Dil izhori

HAYOTIM MAZMUNI

Tadbirkorlikni boshlaganimga yetti yil bo‘ldi. Shu qisqa fursatda oddiy qishloq xotin-qizlari, yoshlar qalb-qo‘ri bilan tayyorlagan “Sadosh” brendi ostidagi qo‘g‘irchoqlarimiz ichki va tashqi bozorda o‘z o‘rnini topdi.

Sadoqat MIRZAYEVA,
“Art house sadosh” MCHJ rahbari, “Shuhrat” medali sohibasi

Farg‘ona tumanidagi “Shohimardonobod” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi bo‘sh turgan binoda kasanachilik asosida milliy hamda zamonaviy uslubda kashtachilik, quroqchilik, qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlar, ayollar sumkasi, to‘n, chopon hamda jiyak to‘qishni yo‘lga qo‘yganmiz. Ayni kunda 110 dan ortiq xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ularning aksariyati “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga olingan hamda nogironligi bo‘lgan ayollardir.

Ortda qolgan yil ko‘plab quvonchli voqea va hodisalarga boy bo‘ldi. Korxonamiz huzurida tashkil etilgan o‘quv markazimizda bugunga qadar 250 dan ortiq xotin-qiz hunarmandlik yo‘nalishida malaka va mahorat oshirdi. Mahsulotlarimiz xorij bozorlari hamda onlayn savdo platformalarida xaridorgir bo‘lmoqda. Eksport geografiyamizda Rossiya, Hindiston, BAA, AQSH kabi davlatlar bor.

Turkiyadagi xalqaro ko‘rgazmada 1,5 million dollarlik, Ozarbayjonda esa ipak ro‘mol tayyorlash bo‘yicha qiymati 150 ming dollarlik kelishuvlarga erishdik. Bundan tashqari, Belarusda o‘tkazilgan hunarmand ayollar forumida ham muvaffaqiyatli ishtirok etdik.

“Olis qishloq hududlarida hunarmandlikni rivojlantirish, xotin-qizlarga hunar o‘rgatish va ularni ish bilan ta’minlash” loyihamiz AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ning 20 ming dollarlik grantiga ega bo‘ldi. Bu esa imkoniyatlarimizni yanada kengaytirdi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratdik. Marg‘ilon shahri va Toshkent viloyatining Parkent tumanida kasanachilik asosida yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlashni yo‘lga qo‘ydik.

Qo‘g‘irchoqlarim hayotim mazmuniga aylangan. Bu yerda ishlayotgan xotin-qizlardan har birining o‘ziga xos yashash tarzi, hayot kechinmalari bor. Bu mahsulotlarimizni rang-barang, hayotiy ruhda tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Tabiiy xomashyolardan tayyorlangan qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlarimiz bolalar salomatligi uchun mutlaqo zararsiz va yuvilsa ham xususiyatini yo‘qotmaydi.

Yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo‘lidagi mehnatim besamar ketgani yo‘q. 2022-yilda “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni, o‘tgan yilda esa “Shuhrat” medali bilan taqdirlandim. Oddiy qishloq ayoliga bo‘lgan bunday e’tirof va rag‘bat kuchimga kuch, g‘ayratimga g‘ayrat qo‘shmoqda. Ijodiy ishlarimiz O‘zbekiston Respublikasi xalq amaliy san’ati ustalarining milliy katalogi hamda Markaziy Osiyo hunarmand ayollar raqamli katalogiga kiritildi.

Joriy yilda bundan-da katta loyihalarni ishga tushirish borasida ishlayapmiz. Xususan, milliy hunarmandlik turizm ustaxonasi, ko‘rgazmalar zali, mehmonxona va kichik yoshdagi bolalar hunarmandligi yo‘nalishida 100 o‘rinli maktabgacha ta’lim tashkiloti qurish yuzasidan takliflar berdik. Bu chekka hududlarda turizmni rivojlantirish, bolalarda yoshlikdan hunarga mehr uyg‘otish, iqtidorlarni erta aniqlash, rag‘batlantirishda o‘ziga xos imkoniyat yaratishiga ishonaman. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 400 dan ortiq yangi ish o‘rni ham yaratiladi.

Yangi O‘zbekistonning yangi hayotida oz bo‘lsa-da, hissam borligidan faxrlanaman. Maqsadim — xotin-qizlar hunarli bo‘lishiga, ularning ish bilan ta’minlanishiga ko‘maklashish. Chunki har bir ayol jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqli, deb o‘ylayman. Buning uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

Bugunning gapi

“QUYOSHLI XONADON”
ishonchli va barqaror energiya manbai

Baxtiyor MAHKAMOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijobiy islohotlar natijasida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari yildan-yilga o‘sib bormoqda. Bu nafaqat ichki biznesni rivojlantirishga, balki tashqi investorlar uchun jozibador muhit hamdir. Binobarin, elektr energetika tizimining barqarorligi va yetarliligi o‘rta, katta va xorijiy kompaniyalar uchun muhim mezon hisoblanadi.

Energetika vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda 2012-2019-yillar oralig‘ida energiya iste’moli o‘sishining bir yillik o‘rtacha ko‘rsatkichi 2,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2020-2030-yillar oralig‘ida bir yilga o‘rtacha 6-7 foizga yetishi prognoz qilingan.

Shu bilan birga, 2030-yilgacha ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan elektr energiyasining asosiy iste’molchisi iqtisodiyot tarmoqlari bo‘lishi, 30 foizi aholi iste’moliga to‘g‘ri kelishi tahlil qilingan. Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekiston bu borada to‘g‘ri yo‘lni tanlagan.

Keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan elektr energiyasiga ortib borayotgan ehtiyojni qondirish, aholi, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini elektr energiyasi bilan barqaror ta’minlash maqsadida yangi issiqlik elektr stansiyalarini qurish bo‘yicha xorijiy kompaniyalar ishtirokida jami 10 ta bitim imzolangani buning yaqqol dalilidir. Mazkur bitimlar natijasida 2027-yil yakuniga qadar 6457 megavattga teng 10 ta zamonaviy issiqlik elektr stansiyasi foydalanishga topshiriladi. Buning uchun Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya, Turkiya singari davlatlarning xalqaro tajribaga ega kompaniyalarida umumiy qiymati 4,3 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb etiladi.

Sohada tizimli olib borilgan ishlar natijasida birgina 2022-yilning o‘zida mamlakatimizning 4 ta — Buxoro, Toshkent, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida umumiy quvvati 1374 megavatt bo‘lgan 6 ta yangi issiqlik elektr stansiyasi ishga tushirilgandi.

O‘zbekiston tarixida bir yilda mana shunday yirik hajmdagi yangi issiqlik elektr stansiyalari hali ishga tushirilmagan bo‘lib, o‘sha yili bu yo‘nalishda tarixiy rekord o‘rnatilgan edi.

Qayd etganimizdek, jamiyat va davlat hayotida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari, sanoat va ishlab chiqarishdagi yangi quvvatlar, eng avvalo, elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyoj o‘sishiga ham olib kelmoqda.

Kelajak avlod uchun energiya zaxiralarini asrash va yetkazib berish asosiy vazifamiz bo‘lib qolmoqda. Aholi, ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohalari hamda iqtisodiyot tarmoqlarida ta’minotni yaxshilash maqsadida 2023-yil 16-fevralda Prezidentimizning “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Uning ijrosi esa Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyundagi “Jismoniy shaxslar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining ehtiyojdan ortiqcha qismini sotish tartibini belgilash to‘g‘risida”gi qarori bilan yanada mustahkamlab qo‘yildi. Ushbu qarorlarga asosan, aholi, ijtimoiy obyektlar va iqtisodiyot tarmoqlariga zarur bo‘lgan elektr energiyasini yetkazib berish maqsadida bir qancha imtiyozlar belgilab berildi. Xususan, 2023-yil 1-apreldan boshlab umumiy quvvati 100 kilovattgacha bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan jismoniy va yuridik shaxslar ushbu qurilmalar bo‘yicha mol-mulk solig‘i, qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha yer solig‘i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig‘ini to‘lashdan uch yil muddatga ozod etildi. Quyosh panellari quvvatiga nisbatan 25 foizdan kam bo‘lmagan quvvatga ega elektr energiyasini saqlash tizimi bilan o‘rnatilsa bu muddat yanada uzayib, o‘n yil etib belgilandi.

2023-yil 1-martdan boshlab esa yagona elektr energetika tizimiga ulanish uchun berilgan texnik shartlarda ko‘rsatilgan quvvatdan yuqori bo‘lmagan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda qo‘shimcha texnik shart olish talab etilmayapti. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini sotishga ruxsat berildi.

O‘tgan yil 1-apreldan aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kilovattgacha) quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” dasturi boshlandi.

BMT ma’lumotiga ko‘ra, Markaziy Osiyo mintaqasida 2050-yilga borib, atmosferaga zararli tashlanmalari chiqarishni nol darajaga tushirish uchun juda qulay imkoniyat va shart-sharoitlar mavjud. Bu ishlar shunga xizmat qilishi bilan yanada ahamiyatlidir.

2023-yil ham O‘zbekistonda energetika sohasida o‘ziga xos yil bo‘ldi. Chunki o‘tgan yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyalari ishga tushirilib, elektr tarmoqlariga ulandi. Ishga tushirilgan elektr stansiyalarning BAA va Xitoyning xalqaro tajribaga ega kompaniyalari tomonidan amalga oshirilishi yurtimiz aholisini, ijtimoiy obyektlarni va iqtisodiyot tarmoqlarini 2,4 gigavattlik “yashil” energiya bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu stansiyalarni ishga tushirish va tarmoqqa ulashga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida kelgusi rejalarga to‘xtalar ekan, “...Biz bugun amalga oshirayotgan ulkan ishlar energetika tarmog‘idagi islohotlarning navbatdagi qadamidir. Bu chora-tadbirlarni tizimli davom ettirib, raqobatli bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o‘tamiz.

Umuman, 2030-yilgacha “yashil” energetika manbalarini 27 gigavattga yetkazish rejalashtirilgan. Bu har yili 25 milliard kub metr tabiiy gazni iqtisod qilish, atmosferaga zararli tashlanmalarni 34 million tonnaga qisqartirishga xizmat qiladi”, dedi.

Chindan ham ushbu loyihalar nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham tarixiy rezonans berib, keyingi bosqichlarga zamin yaratdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bunday sa’y-harakatlar yer osti zaxiralarini tejashda, ekologiya, atrof-muhitni asrashda, chekka hududlarni elektr energiyasi bilan ta’minlash orqali qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishda, energiya narxini barqarorlashtirishda, xavfsiz energiya manbaiga o‘tishda juda qo‘l keladi. Iqtisodiyot, ijtimoiy soha, umuman, kundalik hayot uchun esa, avvalo, barqaror energiya manbai zarur.

O‘rganishlarga ko‘ra, bir kunda yo‘lak bo‘ylab avtobusda harakatlanadigan barcha yo‘lovchilar hamda shaxsiy transport egalarining tejalgan umumiy vaqti 3318 soatni, tejalgan yoqilg‘i yiliga 2,6 million litrni tashkil etib, yiliga 21,2 milliard so‘m iqtisodiy samaraga olib keladi.

Taraqqiyot mezonlari

JAMOAT TRANSPORTI

arzon, qulay va xavfsiz harakatlanish vositasiga aylana oldimi?

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Shu maqsadda yurtimizda jamoat transportining asosiy qismi bo‘lgan avtobuslar harakati holatini yaxshilash bo‘yicha zarur chora-tadbir va dasturlar amalga oshirilmoqda. Avtobuslar parkini yangilash, transport-infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish ishlari parallel tarzda olib borilyapti.

— Jamoat transporti ko‘plab rivojlangan davlatlardagi kabi bizda ham odamlar kundalik hayotda foydalanadigan asosiy harakatlanish vositasiga aylanishi lozim, — deydi Transport vazirligi Jamoat transporti boshqarmasi boshlig‘i Mirakbar Ikromov — Chunki katta shaharlarda yengil avtomobillar soni ortgani sari tirbandliklar ham oshib boraveradi. Bu esa fuqarolarning har kuni aniq manzilga qatnashida noqulayliklar tug‘dirib, ko‘p vaqtining yo‘lda o‘tishiga olib keladi. Jamoat transporti bu masalada bir necha marta samaraliroq bo‘lishi lozim. Biz aynan shunga intilyapmiz va bu borada aniq vazifalarni belgilab olganmiz. Xususan, poytaxtda aholiga qulay sharoit yaratish, shahardagi ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida yer usti jamoat transporti tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilyapti. Ko‘chalarda jamoat transporti ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada oxirgi yillarda shaharda qo‘shimcha jamoat transporti yo‘nalishlari ishga tushirilib, mavjud avtobuslar modernizatsiya qilindi, tizimni boshqarish va monitoring qilishning yangi texnologiyalari joriy etildi.

Har yili xorijdan avtobuslar olib kelinyapti. Masalan, 2022-yilda Toshkent shahri uchun 200 dona o‘rta sig‘imli va 190 dona katta sig‘imli avtobuslar va ilk bor 20 dona zamonaviy elektrobus xarid qilingan edi. 2023-yilda esa shahar jamoat transporti harakat tarkibini mukammal yangilash yuzasidan amalga oshirilgan loyihalar natijasida qo‘shimcha 1000 dona avtobus keltirildi. Ularning 302 tasi elektrobus bo‘lib, asta-sekin shaharda shu kabi ekologik transport vositalariga o‘tish ko‘zda tutilgan. Umuman, shahrimizda so‘nggi ikki yilda avtobuslar soni 2 barobar, harakat tarkibining o‘rtacha sig‘imi esa 74 foizga oshdi. Ularning oraliq intervali 2-3-marta qisqarib, hozirda 8-10 daqiqani tashkil etyapti. Kunlik yo‘lovchi oqimi 1 million nafarga yetdi. Poytaxtga kirib keladigan aholining shahar markaziga yetib borish vaqti esa 45 daqiqadan 30 daqiqagacha qisqardi. Yo‘nalishlar masofasini o‘rtacha 18 kilometrdan 12 kilometrgacha qisqartirish hisobiga jamoat transporti o‘rtacha tezligini 18 kilometr soatdan 21 kilometr soatga ko‘tarishga erishildi.

Yengil avtomobilga nisbatan 135 barobar samaraliroq

Chindan, oxirgi bir necha yilda Toshkentning jamoat transport tizimi sezilarli darajada yaxshilandi. Ochig‘ini aytganda, yurtimizda bu tizim yillar davomida bir holatda qotib qolgan, isloh qilishga eng muhtoj sohalardan biri edi. Bolaligimdan to o‘smir davrimgacha jamoat transporti yo‘nalishida katta o‘zgarish bo‘lgani, doimiy ko‘rinishdagi manzara yangilanganini eslolmayman. Yodimda, 2010-yillarda avtobuslar salonida kichkina televizorlar paydo bo‘ldi. O‘shanda biz uchun bu katta yangilikdek tuyulgan. Ammo bu odamlarni jamoat transportidan foydalanishga jalb eta olmadi. Chunki avtobuslar soni kam, oraliq intervallar juda uzoq, avtobuslar bekatga yetib kelib, u yerda yana bir muddat turib, to harakatlanguncha ancha vaqt o‘tardi. Hozir esa avtobuslarni uzoq kutishga to‘g‘ri kelmaydi, hatto qachon kelishini ham mobil ilovalar orqali ko‘rib turish mumkin.

— Qish qahratoni yoki yoz jaziramasida bekatda avtobus kutish azob edi, — deydi fuqaro Shoyim Boltayev. — Kamiga transportdagi tirbandlikni ko‘rib, navbatdagisini kutishga to‘g‘ri kelardi. Bu, ayniqsa, ishga yoki o‘qishga shoshilayotgan yo‘lovchilarga noqulaylik tug‘dirardi. O‘zim pensionerman. Har doim jamoat transportidan foydalanaman. To‘g‘risini aytsam, keyingi yillarda shahrimizda avtobuslar qatnovi ko‘paydi. Yangi, zamonaviy transportlarda, qulay sharoitlarda manzilga yetib olyapmiz.

Tahlillarga ko‘ra, hozir poytaxtdagi muqim aholining kunlik qatnovi soni o‘rtacha 9 million bo‘lib, shundan 6 millioni harakatlanish transportida amalga oshirilmoqda. Ushbu qatnovlarning 1,7 millioni, ya’ni 28 foizi jamoat transporti hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu hali kam ko‘rsatkich. Yaqin yillarda aholining ko‘p qismini jamoat transportida harakatlanishga jalb etish ko‘zda tutilgan.

E’tibor berilsa, ko‘chalarda harakatlanayotgan mashinalarning ko‘pida faqat 1 ta odam ketayotgan bo‘ladi, 5 ta odam to‘liq bo‘lganini deyarli ko‘rmaymiz. Agar ana shu shaxsiy mashinada ketayotganlarni bitta avtobusga jamlaydigan bo‘lsak, 50 ta avtomobilni harakatdan chiqarish mumkin. Mutaxassislarning aytishicha, Toshkent shahrida bitta yengil avtotransport vositasida bir kunda o‘rtacha 4,3 nafar yo‘lovchi tashilsa, bitta avtobusda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 580 yo‘lovchini tashkil etmoqda. Bu avtobusning yengil avtotransportga nisbatan 135 barobar samarador ekanini ko‘rsatadi. Shaharda tirbandliklarning oldini olish, aholining kunlik harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirib, yo‘lga sarflanadigan vaqt va moddiy resurslar samaradorligini oshirish uchun ham sifatli, qulay, xavfsiz va jozibador jamoat transporti tizimini joriy etish lozim.

— Toshkent shahrida ro‘yxatdan o‘tgan 760 ming avtotransport mavjud bo‘lib, ular soni yiliga 76 mingtaga ko‘paymoqda, — deydi Transport vazirligi huzuridagi loyiha ofisi rahbari Murodjon Obidov. — Poytaxtda transport vositalari doimiy harakatlanadigan asosiy yo‘l tarmoqlari uzunligi 470 kilometr bo‘lgani holda, 380-400 ming avtotransport harakatiga mo‘ljallangan. Ammo odatda bu raqam 1 millionga yetib, avtotransportlar harakati bir vaqtning o‘zida harakatlanish sig‘imidan 2 barobar oshib ketyapti. Bu asosiy ko‘chalarga 2 barobar ko‘p yuklama tushyapti, degani. Yo‘llarda turnaqator tirbandliklar yuzaga kelishi ham shu bilan bog‘liq. Bu oldimizga jiddiy va tezkor choralar ko‘rish vazifasini qo‘yadi. Xususan, Toshkent shahrining uzunligi 29 kilometr bo‘lgan 8 ta asosiy transport arteriyalarida yo‘l bo‘yi parkovkalarni tartibga solish, jamoat transporti harakat ustuvorligini ta’minlash, piyodalar uchun to‘siqsiz va xavfsiz muhit yaratish bo‘yicha qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, aglomeratsiya hududini shahar jamoat transporti tarmog‘i, jumladan, metro bekatlari bilan bog‘laydigan shahar tariflar rejasi asosida avtobus yo‘nalishlarini tashkil etish, transport oqimi samarali muvofiqlashtirilgan boshqaruv (“aqlli” svetoforlar) tizimlarini o‘z ichiga olgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

> “TAHLILLARGA KO‘RA, HOZIR POYTAXTDAGI MUQIM AHOLINING KUNLIK QATNOVI SONI O‘RTACHA 9 MILLION BO‘LIB, SHUNDAN 6 MILLIONI HARAKATLANISH TRANSPORTIDA AMALGA OSHIRILMOQDA. USHBU QATNOVLARNING 1,7 MILLIONI, YA’NI 28 FOIZI JAMOAT TRANSPORTI HISSASIGA TO‘G‘RI KELADI. BU HALI KAM KO‘RSATKICH. YAQIN YILLARDA AHOLINING KO‘P QISMINI JAMOAT TRANSPORTIDA HARAKATLANISHGA JALB ETISH KO‘ZDA TUTILGAN.”

Avtobuslar ham yo‘lda harakatlanadi va ular ham tirbandliklarda qolishi mumkin. Bunday holatda ularning qulayligini ta’minlash, odamlar jamoat transportida manziliga tezroq yetib oladi, deyish qiyin. Alohida avtobus yo‘laklari tashkil etish esa masalaga eng to‘g‘ri yechimdir. Poytaxtimizda 2023-yildan ana shunday yo‘llar tashkil etila boshladi. Maxsus yo‘laklar ko‘chaning o‘ng tomonida faqat avtobuslar harakati uchun tashkil etiladi, unda harakatlanadigan yengil avtomobillarga esa jarima belgilangan.

2023-yil boshida Toshkent shahrida 186,6 kilometr avtobus yo‘laklari tashkil etish belgilab olingan bo‘lsa, Prezidentimizning tegishli qarori bilan 2025-yilgacha poytaxt ko‘chalarida jamoat transporti doimiy harakatlanadigan umumiy uzunligi 475 kilometr bo‘lgan 36 ta alohida avtobus yo‘lagi paydo bo‘ladi.

Shu asosda “Yashil shahar” transport yo‘lagini barpo etish ham ko‘zda tutilgan. Bu bo‘yicha Transport vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida “Toshkent — Kam uglerodli avtotransportga investitsiyalar jalb etishni jadallashtirish” (TAILEV) loyihasi tayyorlanib, taqdimoti o‘tkazildi.

— Yashil transport yo‘lagi Shota Rustaveli ko‘chasida joriy etiladi, — deydi Loyihani boshqarish guruhi rahbari Nodir Xudoyberdiyev. — Uning konsept-dizayni, matematik modeli va texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan. Loyihaga ko‘ra, mazkur yo‘lak joriy etilishi natijasida yo‘lak bo‘ylab avtotransportning o‘rtacha tezligi 11 foiz oshishi, atmosfera havosi ifloslanishi 12,3 foiz qisqarishiga erishilishi hisoblab chiqilgan. Chunki unda, asosan, elektrobuslar harakatlanadi. Qolaversa, alohida velosiped yo‘laklari, yashil hududlar tashkil etiladi.

Loyihani ishlab chiqishda yo‘lovchi va aholi fikri o‘rganilib, nogironligi bo‘lgan shaxslar, qariyalar, bolalar va ayollarning jamoat transporti infratuzilmasiga ehtiyoji inobatga olindi. O‘rganishlarga ko‘ra, bir kunda yo‘lak bo‘ylab avtobusda harakatlanadigan barcha yo‘lovchilar hamda shaxsiy transport egalarining tejalgan umumiy vaqti 3318 soatni, tejalgan yoqilg‘i yiliga 2,6 million litrni tashkil etib, yiliga 21,2 milliard so‘m iqtisodiy samaraga olib keladi.

Loyihaning yana bir yangiligi, yashil transport koridorida ayrim avtobus bekatlari ko‘chaning yon qismida emas, balki markazida joylashadi. Bunda yo‘lovchilarning xavfsizligini ta’minlash maqsadida har bir bekatdagi svetofor, piyodalar o‘tish yo‘laklari tegishlicha tartibga solinadi. Ushbu yo‘lak orqali harakatlanadigan avtobus yo‘nalishlaridan boshlanishiga kuniga 70 mingdan ortiq yo‘lovchi foydalanishi hisob-kitob qilingan.

Avtobus yoki “Damas”?!

Yurtimizning barcha hududida jamoat transportiga talab yuqori. Ayniqsa, chekka hududlar, qishloqlarda aholi qatnovini tashkil etishda avtobuslar eng qulay transport vositasi hisoblanadi.

— 2020-yil 30-noyabrda davlatimiz rahbari raisligida transport sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va tizimni rivojlantirish bo‘yicha kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishda jamoat transportining yangi yo‘nalishlar tarmog‘ini “qishloqdan — tuman markaziga”, “tuman markazidan — viloyat markazlariga” bog‘lash tizimini tashkil etish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi, — deydi Transport vazirligi Jamoat transporti boshqarmasi boshlig‘i Mirakbar Ikromov. — Jarayon avvalida mamlakatimizning barcha hududlari, mahallalar va ular tarkibidagi aholi yashash maskanlarining jamoat transporti bilan qamrab olinganligi to‘liq xatlovdan o‘tkazilib, mavjud tizim tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, 9406 ta mahalladan 1113 tasi tuman markazlari bilan bog‘lanmagani, shahar va tumanlarda 81 ta avtovokzal va avtostansiya hamda 2860 ta oraliq bekat qurish va rekonstruksiya qilishga ehtiyoj borligi aniqlandi. Olis hududlarga qatnovchi yo‘nalishlarning aksariyati past rentabelli va norentabel bo‘lgani sababli mahallalar va qishloqlarni tumanlar markazi bilan bog‘lovchi 200 dan ortiq avtobus yo‘nalishlari yopilib ketgani ma’lum bo‘ldi. Shundan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan norentabel yo‘nalishlarda ishlayotgan tashuvchilarga 2021-yilda 51,1 million, 2022-yilda 8,5 milliard va 2023-yilda 12,1 milliard so‘mdan ortiq subsidiya berildi. Buning natijasida hududlarda yangi yo‘nalishlar setkasi ishlab chiqilib, jamoat transporti yetib bormagan 1081 ta fuqarolar yig‘inida jamoat transporti vositalari harakati yo‘lga qo‘yildi.

Birgina Toshkent viloyati misolida ham ushbu ishlarning amaliy natijasini ko‘rish mumkin. Toshkent tumanida yashaganim bois, 2023-yil boshida shu yerdagi Chimkent yo‘li ko‘chasi bo‘ylab shahar yo‘nalishidagi avtobus qatnovining yo‘lga qo‘yilishi katta voqelik bo‘lganini ayta olaman. Hudud aholisi odatda “Damas” avtomobilida qatnar, yo‘l haqi esa 5 ming so‘mgacha ko‘tarilib ketgandi. Bu yo‘ldan avval sira bunday katta, shinam avtobus qatnamagan. Qaysidir yillari qo‘yib berilgan avtobuslar eski, kichik va ichi tor bo‘lgani, bekatlarda odam to‘lgunga qadar turgani uchun aholi qimmat bo‘lsa ham, “Damas”da qatnashni afzal ko‘rgan. 2023-yil nafaqat Toshkent tumani, balki viloyatning boshqa hududlariga ham yangi avtobus yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilib, aholining quvonchiga sabab bo‘ldi.

— Ayni paytda Toshkent viloyati jamoat transportida 74 ta shahar yo‘nalishi mavjud bo‘lib, shundan 17 tasi avtobus, 11 tasi mikroavtobus, 46 tasi “Damas” transport vositalaridir, — deydi viloyat Transport boshqarmasi xodimi Faxriddin Soliyev. — Hududimizda 204 ta yo‘lovchi tashish yo‘nalishlariga xizmat ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyat olib boradi. Ular tomonidan o‘tgan yili jami 6 ta avtobus va 183 ta mikroavtobus xarid qilinib, yo‘nalishga qo‘yildi. Shuningdek, tegishli qarorlar asosida “Toshshahartransxizmat” AJga tegishli 160 ta “ISUZU” rusumli avtobus Toshkent viloyati aholisiga xizmat ko‘rsatish uchun bepul topshirildi. Ayni paytda ular odamlarning uzog‘ini yaqin qilmoqda.

Viloyatda avtobuslar uchun alohida yo‘laklar tashkil etish ham boshlangan. Dastlabki harakatlar o‘tgan yilning noyabr oyida Angren shahrida olib borildi. Shaharning “Bunyodkor” ko‘chasi bo‘ylab belgilangan yo‘nalishli transport vositalari uchun yo‘l yotiq chiziqlari chizilib, harakatlanish tasmasi bilan ajratildi. Mazkur yo‘llarda avtobus harakatlanish yo‘nalishini bildiruvchi “A” belgilari chizildi. Maxsus avtobus yo‘laklari Olmaliq shahri, keyinchalik, boshqa hududlarda ham tashkil etilishi belgilangan.

Viloyatda yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi 50 dan ortiq korxonada dispetcherlik xizmatlari tashkil qilingan. Joriy yil viloyatning 7 ta shahridagi shahar ichi avtobus yo‘nalishlari dispetcherlik xizmatiga ulanadi. Qolaversa, Toshkent viloyati shaharlarida avtobus yo‘nalishlarining yangi tarmog‘ini joriy etish, avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi va dispetcherlik xizmatini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Bari raqamlashadi

Xuddi shu vazifalar yurtimizning boshqa hududlarida ham faol amalga oshiriladi. Bu 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida ko‘rsatilgan.

Poytaxtimiz bu borada yetakchilik qilishi shubhasiz. O‘tgan yilning o‘zida shahar bo‘ylab jamoat transporti tizimini raqamlashtirishning yangi tartib va usullari joriy etildi. Elektron to‘lovlarni ommalashtirish, yo‘lovchilar uchun qulay tariflar hamda tabaqalashgan tariflarni joriy etish kabilar shular jumlasidan. Ya’ni jamoat transportida to‘lov tizimidan tortib, kunlik yo‘lovchi tashuvlari soni va sifatini nazorat qilishning bari avtomatlashtirilgan tizimga o‘tdi. Ayniqsa, to‘lovlarni naqd pulda emas, balki ATTO va bank kartalari orqali amalga oshirish ko‘pchiligimizga qulaylik yaratayotgani rost.

— Elektron tizimlarni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad, avvalo, shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan, — deydi Transport vazirligi huzuridagi “Raqamli transport markazi” davlat muassasasi direktori Shoxruz Hojiyev. — Buning xalqimiz orasida ijobiy qabul qilinib, keng ommalashayotgani zamonaviy qarashlar bilan ham bog‘liq. Hozir har sohada raqamlashtirishga o‘tish zaruratga aylangan. Xususan, 2020-yilda Toshkent shahar jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimidan 45 mingdan ziyod yo‘lovchi foydalangan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, ular soni 78 mingdan ziyod yoki 173,5 foizga yetdi. Tizim orqali tushayotgan tushumlar esa 28,4 milliard so‘mdan 98,6 milliard so‘mga oshdi. Ayni paytda elektron to‘lovlarning umumiy tushumdagi ulushi 60 foizni tashkil etmoqda. Demak, to‘lovlarni elektron tarzda amalga oshirish odamlar uchun qulay va ular bu afzallikdan foydalanyapti. Mana shu jihatni yanada rag‘batlantirish maqsadida 2023-yil 1-noyabrdan boshlab, Toshkent shahrida aholi uchun qulay bo‘lgan yangi to‘lov tariflari joriy etildi. Unda elektron to‘lov tizimi foydalanuvchilariga ustuvorlik berilgani boisi ham shunda.

Transport kartalaridan foydalanilgan holda bir soat ichida bir yo‘nalishli yo‘lovchi transportidan boshqasiga o‘tish sonidan kelib chiqqan holda, imtiyozli va bepul tarif rejalari ham mavjud. Unga ko‘ra, bir soat ichida uchinchi va to‘rtinchi avtobusdan foydalanish mutlaqo bepul etib belgilandi. Yo‘lkirani to‘lashda tabaqalashtirilgan tarif va elektron to‘lov tizimlarini qo‘llash xorij tajribasida ancha oldin ommalashgan. Mutaxassislar o‘sha tajribani o‘rganib, yangiliklarni joriy etayotgani samaradorlikni yanada oshirmoqda.

Poytaxtda 2023-yil 1-avgustdan boshlab, 167 ta yo‘nalishdan iborat yangi yo‘nalishlar tarmog‘ida to‘liq brutto-shartnoma tizimi yo‘lga qo‘yilgani ham raqamlashtirishning bir ko‘rinishi. Brutto-shartnoma tizimi — yo‘nalishlarda cheklangan tariflarda yo‘lovchi tashish xizmatlari uchun “bosib o‘tilgan yo‘l” va “sifat” mezonlaridan kelib chiqqan holda, hisob-kitob qilishni nazarda tutuvchi vakolatli organ va tashuvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomani anglatadi.

— Ayni paytda Toshkent shahrida 167 ta yangi yo‘nalishlar tarmog‘ida kuniga 1638 ta avtobus harakat qilmoqda, — deydi “Toshshahartransxizmat” AJ rahbari Anvar Jo‘rayev. — Brutto-shartnoma tizimi asosida yo‘lovchilar soni va tushumlar solishtiriladi. Olingan natijalarga ko‘ra, masalan, sentyabr oyida aprel oyiga nisbatan avtobus saroylarida haftalik o‘rtacha tushum 4,5 milliard so‘mdan 6,5 milliard so‘mga, tashilgan yo‘lovchilar soni esa 4,2 milliondan 5,5 milliongacha oshgan. Bunda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushi 41 foizdan 51 foizga yetdi.

— Ilgari kunlik pul tushumi bo‘yicha rejamiz bor edi, — deydi haydovchi Dilmuhammad Amirqulov. — Avtobus boshqarayotgan odam rulni ushlaganidan boshlab, to ishini tamomlaguniga qadar ana shu belgilangan rejani bajarish haqida o‘ylardi. Bu o‘z-o‘zidan ishimizga ham xalaqit bergan paytlar ko‘p bo‘lgan. Sababi, jamoat transportiga turfa xarakterli odamlar chiqadi va haydovchining holati bilan hisoblashmaydi. Endi esa reja degan narsalar olib tashlandi. Elektron tizim asosida yo‘lovchilardan yo‘l haqi olish imkoni yo‘lga qo‘yildi. Oylik maoshlarimiz qariyb ikki barobar oshdi. Xullas, tizimdagi yangiliklar ham haydovchi, ham yo‘lovchi uchun qulaylik yaratmoqda.

Jamoat transporti yo‘nalishida markazlashgan dispetcherlik xizmatini joriy qilish bo‘yicha ham ish olib borilyapti. Bu boradagi xorijiy hamkor esa Xitoyning yetakchi “Magnetic North” kompaniyasidir. Ushbu dasturda yo‘nalishdagi avtobuslarni onlayn kuzatish, avtobus ish tartibi hisobini yuritish, yo‘lovchilar oqimini aniqlash, yo‘nalishlar va avtokorxonalar kesimida tahlil qilish, haydovchilarni onlayn kuzatish va haydovchi bilan VoIP tizimi orqali onlayn bog‘lanish imkoniyatlari yaratilgan. Xitoyliklar bilan birgalikda ishlab chiqilgan dastur dastlab Toshkent shahrida joriy qilindi, 2024-yil mobaynida esa barcha hududlarda tatbiq etiladi.

Yaqinda Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan nimstansiyani foydalanishga topshirdik. U nafaqat kombinatning yangi va bunyod etilayotgan obyektlarini quvvat bilan ta’minlaydi, balki mamlakatimizning markazlashgan tizimiga ham elektr energiyasini yetkazib beradi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 6-yanvar, 4-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Tahlil va taqqos

MEGA LOYIHALAR va KENG KO‘LAMLI BUNYODKORLIK

yirik sanoat korxonasi faoliyatida katta ahamiyat kasb etmoqda

Boshlanishi 1-betda

— 2023-yil mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida, uning rivojida alohida ma’no-mazmunga ega bo‘ldi, — deb so‘z boshladi biz bilan suhbatda **“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ boshqaruvi raisi, senator Abdulla XURSANOV.** — Avvalo, milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi. Unda va O‘zbekiston Prezidenti saylovi jarayonlarida kombinatimizning har bir a’zosi faol ishtirok etdi. Chunki mazkur siyosiy jarayonlar natijalari oldimizga qo‘ygan ezgu maqsadlarga erishishda ortga qaytmas islohotlarning mustahkam huquqiy kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bu — barqaror taraqqiyotning asosiy mezoni. Unda 2030-yilga borib, yalpi ichki mahsulot hajmini 2 barobar ko‘paytirib, 160 milliard dollarga yetkazish, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgi 2200 dollardan 4 ming dollarga oshirish belgilangan. Ayni chog‘da mazkur muddatda tog‘-kon sanoatida ham texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali yuqori daromadli mahsulotlar uchun zarur bo‘lgan mis ishlab chiqarishni 3,5, oltinni 1,5, kumushni 3 barobar oshirish uchun bor imkoniyatlar ishga solinadi.

Ushbu maqsadlar Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyati bilan uzviy bog‘liq va korxonamiz ularning bajarilishiga salmoqli hissa qo‘shish uchun barcha asoslarga ega. Xususan, rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha loyihaning joriy etilishi ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash quvvatini sezilarli darajada oshiradi. Birinchi bosqichda yiliga 65 million tonna ruda qazib olish quvvatiga ega bo‘lgan karyer, 60 million tonna misni qayta ishlovchi 3-mis boyitish fabrikasi ishga tushiriladi, yangi metallurgiya majmuasini qurish ishlari boshlanadi.

3- va 4-mis boyitish fabrikalarining foydalanishga topshirilishi natijasida OKMKning ma’danni qayta ishlash bo‘yicha umumiy quvvati 160 million tonnaga yetkaziladi. Bu Chili, Peru, Meksika va AQSHdagi eng yirik korxonalar quvvatidan yuqori. Yana bir muhim ko‘rsatkich — 11 ming ish o‘rni yaratiladi.

Mazkur megaloyihani amalga oshirish evaziga OKMK jahonda tog‘ jinslari massasini qazish bo‘yicha 16-o‘rindan eng yuqori pog‘onaga, ma’danni qayta ishlash hajmi bo‘yicha 25-o‘rindan birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Mis ishlab chiqarish bo‘yicha esa eng yirik ishlab chiqaruvchilarning kuchli o‘nligiga kiradi. Oltin, kumush, selen, tellur, palladiy, molibden, reniy va boshqa qimmatbaho metallarga ham dunyoda talab ortib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining yana bir muhim strategik tashabbusi bo‘lgan Mis klasterini joriy qilish to‘g‘risida qarori bir vaqtda va bir joyda xomashyodan tayyor mis mahsulotlarini bozorga chiqarish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, bu islohotlar yangi imkoniyatlar va bunyodkorliklarga zamin bo‘lmoqda. Yirik loyihalar natijasida ishlab chiqarish quvvatlarining keskin oshishi yangi 4-mis boyitish fabrikasi va 2-mis eritish zavodi qurilishi ishlarini jadal boshlashni talab etmoqda.

Ayni kunlarda kombinatda yangi texnologiyalar asosida 2-mis eritish zavodini barpo etishga kirishish jarayonlari ketyapti.

4-MBF hamda 2-MEZ ishga tushishi natijasida 2030-yilga qadar mis ishlab chiqarish quvvati yiliga 400 ming tonnaga, oltin 50, kumush 270, sulfat kislota ishlab chiqarish 4 million 100 tonnaga yetkaziladi. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim poydevor bo‘lishi shubhasiz. Ularning yana bir ahamiyatli jihati yashil iqtisodiyotga asoslanganidir. Yangilanayotgan kombinatning ishlab chiqarish jarayonlariga tabiatga zarar yetkazmaydigan va atmosferaga chang, gaz chiqarmaydigan “yashil” texnologiyalar joriy etilmoqda.

— Davlat dasturida “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirishning birinchi bosqichini tugatish, 3-mis boyitish fabrikasini ishga tushirilishi belgilangan edi. Bu kabi ishlab chiqarish va infratuzilmani yaratishga doir loyihalar qanday bajarilmoqda?

— Ma’lumki, 2017-yilning avgust oyida Prezidentimizning Olmaliqqa tashrifi kombinat va shahar hayotida tarixiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Uzoq yillar davomida “Dalneye” nomi bilan foydalanilmay kelingan kon zaxirasi “Yoshlik” nomi bilan dunyoga yuz tutdi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati jahondagi nufuzli kompaniyalardan biri “SRK Consulting”(Buyuk Britaniya) ning tajribali mutaxassislari bilan hamkorlikda konlarda JORC kodeksi asosida tasniflash maqsadida geologik qidiruv va tahlil ishlari olib borilib, qayta baholandi hamda ularning matematik-geologik modeli yaratildi. “Qalmoqqir” va “Yoshlik-1” birlashgan konida ma’dan 21,2 milliard tonna, mis 47 million tonna, shuningdek, kumush, oltin kabi boshqa metall resurslar hisoblandi va dunyodagi eng yirik ma’dan maydonlari sirasiga kiritildi.

Tahliliy xulosaga ko‘ra, “Yoshlik-1” dunyoda ma’dan tarkibida oltin hajmi bo‘yicha eng yirik kon, deya tan olindi. Oltin hajmi bo‘yicha kombinat zaxiralari 1-o‘rinni, mis konlaridagi ma’danlarda o‘rtacha oltin tarkibi bo‘yicha 2-, ma’dan hajmi bo‘yicha 3-, mis hajmi jihatdan 6-o‘rinni egallaydi. “Qalmoqqir” va “Yoshlik-1” konlaridagi geologik qidiruvlar natijasida navbatdagi 100 yil davomida kon qazish ishlarini olib borish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Davlatimiz rahbarining qarori bilan 2020-yilda “Yoshlik-1” konini o‘zlashtirish asosida 3-mis boyitish fabrikasi qurilishiga start berildi.

Hozirgi vaqtda fabrikada qurilish ishlari qizg‘in davom etmoqda va uni 2024-yilda ishga tushirish mo‘ljallanmoqda. Yangi mis eritish kompleksi va 4- va 5-mis boyitish fabrikalarini qurish loyihalarini ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Mazkur obyektlar uchun texnik-iqtisodiy asoslar tayyorlanmoqda.

Yaqinda Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan nimstansiyani foydalanishga topshirdik. U nafaqat kombinatning yangi va bunyod etilayotgan obyektlarini quvvat bilan ta’minlaydi, balki mamlakatimizning markazlashgan tizimiga ham elektr energiyasini yetkazib beradi. Yangi korxonalarimizning suv ta’minoti inshootlarida ham ishlar yakuniga yetyapti.

Shu yil Samarqand viloyatidagi “Ingichka” kon maydonidagi texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha fabrikaning ikkinchi navbatini qurishga ham kirishiladi.

— O‘tgan yili kombinat olimlari va mutaxassislarining qattiq qotishmalarga qo‘shish uchun volfram nanokukunini olish usuliga ixtiro patenti berilganligi OAVda keng yoritilgan edi. Bunday kashfiyotlarga qiziqish chet ellarda ham kattaligi, ularning tadqiqotlari jahon grantlari doirasida qo‘llab-quvvatlanishining sababi nimada?

— Sanoat korxonalarining kelajagi fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviylikka bog‘liq. Shuning uchun biz kombinatda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini tizimli tarzda muvofiqlashtirib borishga katta ahamiyat qaratdik. Kombinat olimlari va mutaxassislari 2023-yilda erishgan natijalarni sarhisob qiladigan bo‘lsak, Intellektual mulk agentligi tomonidan to‘rtta yangi ixtiroga patent olishga erishdik. Bular “Qattiq qotishmalarga qo‘shish uchun volfram nanokukunini olish”, “Sof palladiy olish”, “Texnogen chiqindilardan volfram olish” va “Mis eritish changlarini qayta ishlash” kabi usullar bo‘lib, bu ilmiy kashfiyotlar kelgusida kombinatda ishlab chiqarish samaradorligi va natijadorligini yuqori darajada ta’minlashga katta hissa qo‘shadi.

Yetuk mutaxassislarimiz O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va oliy o‘quv yurti olimlari bilan yaqin hamkorlikda muntazam ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Masalan, shu paytgacha reniyni birikma holida olardik va uning bir kilogrammi narxi 750 dollarni tashkil etardi. Endi bu metallni sof holda 99,97 foizli kukunini yangi ilmiy texnologiyalar asosida hosil qilishga erishildi. Bu borada tajribalar yakunlandi va mazkur yilda bir grammi 5-7 dollar narxda bo‘lgan sof holdagi reniy metali ishlab chiqarishni boshlaymiz.

Bundan tashqari, platina, indiy, nikel ajratib olish texnologiyalari ham ishlab chiqarishga tatbiq etildi va ularni sanoat miqyosida sinash jarayonlari ketmoqda. Shuningdek, yana bir yangi mahsulot — ferromolibdenni ham Chirchiq shahridagi ilmiy ishlab chiqarish birlashmamizda amaliyotga tatbiq etishni boshlab yubordik.

> “Mazkur megaloyihani amalga oshirish evaziga OKMK jahonda tog‘ jinslari massasini qazish bo‘yicha 16-o‘rindan eng yuqori pog‘onaga, ma’danni qayta ishlash hajmi bo‘yicha 25-o‘rindan birinchi o‘ringa ko‘tariladi.”

2024-yilda ham olimlar bilan hamkorlikda selen, tellur, volfram, molibden kabi noyob metallarni sof nanokukun holida hosil qilish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish bilan birga, oldimizga yana qator vazifalarni qo‘yganmiz. Yangi nodir metallarni ajratib olish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini Xitoy, Vengriya, Janubiy Koreya, Finlyandiya kabi davlatlarning olimlari bilan hamkorlikda davom ettirib yuqori samaradorlikdagi texnologiyalarni yaratish, ixtiro etish ustida izlanishlar olib boriladi.

— Prezidentimiz ta’kidlaganidek, hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuksak salohiyatli, bilimli, mas’uliyatli, raqobatbardosh kadrlarni kamol toptirish har qachongidan dolzarb masalaga aylangan. Har qanday korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuksak malakali kadrlar muhim o‘rin tutishi hech kimga sir emas. Tabiiyki, qurilayotgan biri-biridan zamonaviy korxonalar ularga bo‘lgan talabni yanada oshiradi.

— To‘g‘ri, keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, sanoat, ishlab chiqarishdagi yangilanishlar, shubhasiz, yuqori malakali kadrlarni talab etadi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida so‘nggi yillarda ularni tayyorlash borasida ham salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbarining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlariga qaratilgan qaroriga muvofiq, jamiyatimizda Muhandislik maktabi loyihasi amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda 160 nafar o‘ringa mo‘ljallangan o‘quv binosini qurish ishlari yakuniga yetyapti. Muhandislik maktabida “Geologiya”, “Konchilik ishi”, “Kon sanoati transportlari”, “Marksheyderlik ishi”, “Foydali qazilmalarni boyitish”, “Metallurgiya”, “Mexanika”, “Energetika”, “Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish” kabi yo‘nalishlarda oliy ma’lumotli, kamida 2-yil ishchi kasbida faoliyat yuritayotgan xodimlarning malakasi oshiriladi. Dars jarayonlariga oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari jalb etiladi.

Qolaversa, o‘quv-amaliyot jarayoni Germaniyaning Frayberg texnika universiteti konchilik akademiyasining professor-o‘qituvchilari ishtirokida onlayn va oflayn formatda tashkillashtiriladi. Mashg‘ulotlar davomida tinglovchilar “Serpo Mineral Systems”, “Thyssenkrupp”, “Metso Outotec”, “O‘ZTM-Karteks” kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari texnologiyalarini o‘rganadi.

Bugungi kunda xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil olgan 465 nafar yosh mutaxassisimiz kombinat ishlab chiqarishining turli sohalarida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, 51 nafar yosh “Olmaliq KMK” AJ tavsiyasi asosida Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya ta’lim muassasalarida tahsil olmoqda. O‘tgan yili 62 nafar mutaxassisimiz Finlyandiya, Rossiya, Qozog‘iston, Chili, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy davlatlari kompaniyalarida malaka oshirib qaytdi. Jumladan, Xitoyning Pekin konchilik ishi va metallurgiya loyiha ilmiy-tadqiqot instituti (BGRIMM) bilan hamkorlikda 13 nafar xodim mineral xomashyoni boyitish, flotatsiya, gravitatsion uskunalar va kimyoviy reagentlar tanlash bo‘yicha malaka oshirdi va tadqiqotlar o‘tkazdi. Tadqiqotlar Olmaliqdagi tajriba boyitish fabrikamizda davom etmoqda.

2024-yildan boshlab, har yili 10 nafardan, kelgusi yillar ichida jami 100 nafar mutaxassis Janubiy Koreyaning yetuk kompaniyalari va Koreya sanoat texnologiyalari institutida ODA dasturi granti asosida amaliyot o‘tashiga kelishilgan. Kombinatda O‘zbekistonning 21 ta va xorijning 10 ta oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Germaniyaning Frayberg akademiyasi, Drezden texnika universiteti, “Aurubis AG” va “GP Günter Papenburg AG” kompaniyalari tajribasi asosida Geologiya fanlari universiteti, Rossiyaning “MISiS” milliy tadqiqotlar texnologik universiteti Olmaliq filiali hamda korxona kollejining talaba va o‘quvchilari uchun nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalar uzviy bog‘liqligini ta’minlash maqsadida tarkibiy bo‘linmalarda dual ta’lim tizimi joriy etildi.

— Kombinatda raqamlashtirish tizimini tatbiq etish jarayoni qanday kechmoqda?

— So‘nggi besh yilda mamlakatimizda raqamlashtirish tizimining joriy qilinishi, ayniqsa, kombinat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, rux zavodining kuydirish sexida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish (SCADA) tizimi takomillashtirildi. Natijada asosiy “onlayn” nazorati va texnologik reglamentga muvofiq ishlab chiqarishni yuritishga o‘tildi. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazini takomillashtirish doirasida esa serverlarning quvvati 3 barobarga oshirildi va axborot xavfsizligi darajasi kuchaydi.

Mis boyitish fabrikasida 27 ta zamonaviy raqamli tenzometrik tarozilar o‘rnatildi va texnologik jarayonda ma’dan vaznini o‘lchash aniqligi 99,8 foizni tashkil etyapti. Shuningdek, 7-monoseksiyani texnologik avtomatlashtirish maqsadida 405 ta nazorat va o‘lchov asboblari, 26 ta boshqaruv javonlari o‘rnatilib, signallari yuqori darajadagi dispetcherlik punkti bilan integratsiya qilindi. Natijada texnologik jarayonni 2 foizga optimallashtirish hamda reagent sarfini 5 foizga kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, 37 ta dozator nasoslari va 5 ta yangi reagent rezervuarlari sozlanib, ishga tushirildi. Bunkerda ma’dan darajasini nazorat qilish tizimi joriy etilishi evaziga tegirmonlarning bo‘sh ishlashi holati 90 foizga kamaytirildi. Mis eritish zavodida “Metso-Outotec” va “Engineering Dobersek” kompaniyalari mutaxassislari bilan birgalikda vanyukov pechi va sulfat kislota sexining boshqaruv tizimi, nazorat hamda o‘lchov asboblarining uzluksiz ishlashi ta’minlandi.

Texnologik jarayonlarni boshqarish, transport-logistika tizimi ham to‘liq raqamlashtirilgan. Hujjatlar aylanmasini, iqtisodiyot-moliya, buxgalteriya tizimi uchun ID tizimi va 1 S tizimlari joriy qilindi. Bu, o‘z navbatida, har sohada ish unumdorligini oshirib, mablag‘larning iqtisod qilinishiga erishilmoqda.

Kombinatdagi barcha ijtimoiy xizmatlar ham raqamlashtirilib, ishchi-xodimlarga qulaylik yaratildi. Bog‘chalarga onlayn navbat orqali elektron yo‘llanma ajratilishi, dam olish maskanlariga buyurtma berilishi, hatto tibbiy xizmatdan foydalanish jarayoni ham avtomatik tizimlashtirildi. Bu boradagi ishlar jadal davom ettiriladi. Yangi qurilayotgan 3-mis boyitish fabrikasi va mis eritish zavodini kengaytirish loyihasi doirasida texnologik jarayonlarning to‘liq avtomatlashtirilgan tizimlari joriy etiladi.

— Ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ko‘rsatilgan e’tibor va amalga oshirilgan ishlarga ham to‘xtalib o‘tsangiz.

— Ishlab chiqarishga va yangi loyihalarni tatbiq etishga yo‘naltirilayotgan keng qamrovli moliyaviy mablag‘larga qaramay, o‘tgan yili ham jamoa shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda saqlab qolishga erishdik. Ijtimoiy muassasalardagi aholi qatlamlari hamda ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilariga qaratilgan e’tibor va g‘amxo‘rlikni ta’minladik. Kombinatning mazkur muassasalarga biriktirilgan tarmoq bo‘linmalari zarur ta’mir ishlarini olib bordi, ko‘plab xayriya tadbirlari amalga oshirildi. Jismoniy imkoniyatlari cheklangan farzandlari bo‘lgan yoki ishlab chiqarish tufayli boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali va ijtimoiy himoyaga muhtoj kombinat ishchi-xodimlarining oilalari ham e’tibordan chetda qolmadi.

2023-yilning o‘zida ikkita muhim sog‘liqni saqlash muassasasi — kombinatimizning Tibbiy-sanitariya qismi va tumanlararo Perinatal markaz kapital ta’mir va rekonstruksiyadan so‘ng foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlandi. Qiziltog‘ shaharchasidagi “Chotqol” madaniyat uyi to‘liq rekonstruksiya qilindi. Tasarrufimizdagi 336 o‘rinli 33-son maktabgacha ta’lim tashkilotida ham shunday ishlar olib borilib, yangi jihozlar bilan ta’minlandi va Mustaqilligimizning 31 yilligi arafasida foydalanishga topshirildi.

Bu kabi xayrli ishlar aholiga munosib turmush sharoiti yaratish va ertangi kunga qat’iy ishonch uyg‘otishi bilan o‘zini oqlaydi. Bunga misol sifatida to‘liq rekonstruksiyadan chiqarilgan sanatoriy-profilaktoriyamizni keltirishimiz mumkin. Bu maskanda kombinatimiz mehnat ahli zamonaviy sharoitlarda sog‘lomlashtirilmoqda. Ta’mirdan chiqarilgan “Moviy tog‘lar” dam olish maskani yoki Jizzax viloyatida joylashgan “Istiqlol” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi yilning istalgan vaqtida dam oluvchilarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Olmaliq shahridagi Ehtirom ko‘chasi “Oydin” bozorining old qismida zamonaviy yer osti piyodalar o‘tish yo‘lagi qurilib, qisqa muddatda foydalanishga topshirildi. Bu bilan piyodalar ishtirokida eng ko‘p noxush hodisalar yuz berish xavfi yuqori bo‘lgan hududda aholiga qulay va xavfsiz sharoit yaratildi. Olmaliq shahrining infratuzilmasini yaxshilash maqsadida shahar ko‘chalari, turar joy va ijtimoiy obyektlar atrofi obodonlashtirilib, shaharning 75 ming kvadrat metrdagi asosiy hamda ichki yo‘llari asfaltlashtirildi. Kombinat respublikamizning boshqa hududlarida ham ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Biz “yashil” energetikaga o‘tish borasida ham katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdik. Buning hisobiga 15,2 million kVt/soat elektr energiyasi, 3,9 kub metr tabiiy gaz va 1,37 ming tonna miqdorida neft mahsulotlari iqtisod qilishga erishdik. Joriy yilda quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish ishlarini davom ettiramiz, ularning umumiy quvvati 9041 kVt. ni tashkil etishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz xalqimizga yo‘llagan Yangi yil tabrigida inson qadrini ulug‘lash, aholi manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish asosiy vazifa bo‘lib qolishini e’tirof etar ekan, 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilinganini ta’kidladi.

Kombinatimizda ham yangi yilda mega loyihalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini oshirish va sifatini ta’minlash bo‘yicha zimmamizdagi yuksak vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi e’tiborimizda bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yanada kuchaytiriladi. Yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi, xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beriladi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Abdurauf QORJOVOV suhbatlashdi.

Daxldorlik tuyg‘usi

TARIXIY UCHRASHUV SHUKUHI

Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar!

Muhammadjon QURONOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti direktori o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Nutq kontekstida biz, ziyolilarga XXI asr jadidlari bo‘ling, degan da’vat bor. Bu da’vatni biz vijdon ishiga da’vat deb qabul qilamiz. Zero, “Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqan.

XX asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslaylik”, dedi davlatimiz rahbari.

Bu eslatma bejiz emas. U bizga yaqinda Turkiston jadidlariga bag‘ishlangan konferensiya shukuhini eslatdi. Jadid bobolarimizning jasoratini yodimizga soldi. Bu eslatma har birimizni bedor qiladi.

Ziyolilar orasida “milliy vaksina” tushunchasi mashhur bo‘lib ketdi. Shu paytgacha nazariy bahslar ostida qolib kelayotgan mavhum masalaning ma’nosi ikki so‘zda yarq etib ochildi. “Milliy vaksina” milliy tarbiyani, milliy g‘oyani, mafkurani, milliy adabiyotni, milliy ma’naviyatni, milliy qadriyatlarni, tilni, milliy fazilatlarimizni, milliy mafkuraviy immunitetni qamrab oladi. Albatta, bu fundamental definitsiya Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan maxsus o‘rganilib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarimizning eng zamonaviy texnologiyasi sifatida zudlik bilan hayotga joriy qilinadi. Chunki ma’naviy vaksinani bolalikdan qo‘llamasak, farzandlarimiz katta bo‘lgach, foydasi bo‘lmaydi.

Ma’ruzada g‘oyaviy-mafkuraviy sohaning samarasini belgilovchi bir savol o‘rtaga tashlandi. Bu so‘rov oddiy emas, bizga kamchiliklarimizni ko‘rsatib bergan savol bo‘ldi. Ochig‘i, ko‘pchilikda haligacha g‘oya, mafkura nazariy, falsafiy soha, degan qarash bor. Sohadagi kamchiliklarimizga ham mana shu biryoqlama qarash sabab bo‘lib kelayotgan edi. Yig‘ilishda g‘oyaviy-mafkuraviy sohaning, avvalo, amaliy va raqobatli ish, ya’ni kimdir yengadigan, kimdir yengiladigan kurash ekani alohida ta’kidlab ko‘rsatildi.

Bu savol “bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolish” shartini oldimizga ko‘ndalang qo‘ydi. G‘oyaviy-mafkuraviy soha bugun hayot-mamot masalasi ekanini ochiq-oydin ko‘rsatib berdi. Barchamizni bamaylixotirlikdan, g‘aflat uyqusidan uyg‘onishga qattiq turtki bo‘ldi. “Yashab qolish” uchun kurashga chorladi. Bu savoldan so‘ng uxlayotgan uyg‘onishi, uyg‘ongan turishi, turgan yurishi, yurgan yugurishi kerak.

Qat’iy so‘rov bizni amaliy ishlarga otlantirdi. Ertaga kech bo‘lishidan ogohlantirdi. Mana o‘sha mashhur, tarixiy savol: “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi?

Mana bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Bular oddiy savollar emas. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Bugun buyuk Fitrat 100 yil olisdan turib bu da’vatni qo‘llab-quvvatlamoqda: “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jism-u tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir!”.

Rivojlanish maqsadi bilan yashayotgan har bir xalqning milliy g‘oyasi bo‘ladi. U millatni bir jonu bir tan, ahil qiladi. Hamma sohaning boshini biriktiradi. Uyushmaganlarni uyushtiradi. Yig‘ilishda milliy g‘oyaning haqiqiy, funksional, ya’ni metodik mohiyati urg‘ulangani bejiz emas. Milliy g‘oya, avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi urg‘ulandi. Demak, milliy g‘oya metodik, metodologik asos. Aynan mana shunday asos bo‘ladigan, yangi O‘zbekiston xalqining yangilangan milliy g‘oyasini rivojlantiruvchi alohida, dasturiy hujjat ishlab chiqiladi.

Metod nima? Internetning gumanitar portaliga murojaat qilsak, unda “Metod bu — biror vazifani bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun qo‘llanadigan ratsional harakatlar yig‘indisi” ekani qayd etilgan. Fikr-mulohazalar emas, aynan “harakatlar yig‘indisi”. Birgina mana shu fikr ham milliy g‘oya, mafkura masalasining bir qismi — nazariy, ikkinchi qismi — metodika bo‘lishini aniq-tiniq ajratib berdi. Bu fundamental aniqlik zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy ishlar metodikasini zudlik bilan ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Ochig‘ini aytsak, o‘tgan o‘n yilliklar targ‘ibotida odamlarda shavq va rag‘bat uyg‘otish, safarbar qilishdan ko‘ra, milliy g‘oya, mafkura haqida bilim, ma’lumot berish bilan cheklanish holati kuzatildi. “G‘oya keng targ‘ib qilinyapti”, degani hali u “xalqqa singyapti, kishilar qalbidan o‘rin olyapti, ularni safarbar qilyapti”, degani emas. Aytilgan gaplar kishi ongidan axborot sifatida o‘rin olsa-yu, hayratga solmasa, yuragidan joy olib, harakatga keltirmasa, natijaga erishdik, deya olamizmi? Yo‘q, albatta. Bu haqda qadimgi buyuk notiqlar “Men oyni ko‘rsatsam, odamlar barmog‘imga qarashdi”, deb hazillashgan.

Zamonamizdan bir misol: yuksak sifat va dizayn bilan tayyorlangan shampun reklamasini olaylik. U odamlarda ikki xil fikr uyg‘otishi mumkin: birinchisi: “reklamani qoyillatishibdi”; ikkinchisi: “shu shampunni bugunoq sotib olaman”. Voizning nutqi ham tinglovchilarda ana shunday ikki xil ta’sir uyg‘otishi mumkin: “ma’ruzachi juda chiroyli gapiryapti” yoki “men bugundan boshlab shu fikrga amal qilaman!”.

Yana bir yangilik: milliy g‘oyani rivojlantirishning dasturiy hujjatini ishlab chiqishda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablaridan kelib chiqiladi. Bu so‘zlarga diqqat bilan qarasak, milliy g‘oyamizning Konstitutsiyamiz talablariga mosligi, uyg‘unligi va zinhor zid bo‘lmasligi ochiq namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston xalqining milliy g‘oyasi (orzu-umidlari) Bosh qonunimizning fundamental prinsiplariga zid bo‘lishi mumkinmi? Aslo mumkin emas. Aksincha, milliy g‘oya mana shu konstitutsiyaviy prinsiplarni amalga oshirishni ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlashning metodik asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’ruzada xalqimizni quvontirgan, hayratga solgan xushxabarlar juda ko‘p bo‘ldi. Shulardan biri Samarqandda Amir Temur bog‘lari, Bibixonim onamizning masjidi tiklanishidir. Tan olaylik, bu ishni qilish u yoqda tursin, hatto aytishga ham biror kishi jazm qila olmagan. Tasavvur qiling, 2025-yilda hammamiz o‘sha Gonsales Klavixo bundan 620 yil avval ko‘rgan Samarqandni ko‘ramiz. Amir Temur yaratgan bog‘larda sayr qilamiz. Bibixonim masjidining ulkan maydonida turib suratga tushamiz! Ichki va tashqi turizm mislsiz kuchayadi!

Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Davlatimiz rahbarining nutqi ijtimoiy tarmoqlarda xalqimiz tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Minglab izohlar, iftixor izhorlari, qo‘llab-quvvatlovchi so‘zlar bitildi. Ularning har biri — bir qalbning zamonaviy izhori. Kayfiyatining qatrasi, shaxsiy munosabati. Qalbdan qalbga qaytgan aks sado.

Shulardan biri — farg‘onalik ziyoli Baxtiyor Tolibovning internetda yoyilib ketgan otashnafas satrlarini ko‘pchilik o‘qidi. Bu she’rni o‘qisangiz, Prezidentimizning “... Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar”, degan fikri yodga tushadi.

Ko‘kragi qalqon yangi zamon jadidining bugungi tahdidlarga na’rasi bo‘lib eshitiladi. She’rning nomi ham aniq, jangovar: “Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar! (yot g‘oyalarga qarshi)”, deb izohlab ham qo‘yibdi:

Yaqin bo‘lsang, do‘stligingni qilib qo‘y,
G‘anim bo‘lsang, ko‘zingni och, bilib qo‘y,
Qo‘lingdagi qurolingni ilib qo‘y,
Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar,
Bu yurtda yengilmas polvonlar yashar!
Ko‘z tikma ona yurt, aziz tuproqqa,
Bag‘rimiz ochamiz faqat o‘rtoqqa,
So‘zlarim yoqmasa, o‘tgil chetroqqa,
Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar,
Bu yurtda yengilmas polvonlar yashar!
Mustaqil, ko‘kka bo‘y cho‘zgan Vatan bu,
Bag‘rida baxtlilar o‘sgan Vatan bu.
Hamisha barchadan o‘zgan Vatan bu,
Bu yurtda ko‘kragi qalqonlar yashar,
Bu yurtda yengilmas polvonlar yashar!

Nuqtayi nazar

YAGONA YECHIM — BIRDAMLIKDA!

PISA-2022 natijalari bizga xatolarimizni ko‘rsatdi

Sanobar KENJAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida yurtimizning Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi — PISA (The Programme for International Student Assessment) bo‘yicha jahonning yetakchi 30 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan. Zotan, bugun dunyoning qariyb 70 dan ortiq mamlakati o‘quvchilarning bilimi va saviyasini xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlashni ma’qul ko‘rayotir hamda o‘quvchilarining XXI asrga xos bilim, ko‘nikma va malakasi reytingini yangilashga urinmoqda.

Xalqaro miqyosda beshinchi marta o‘tkazilgan PIRLS xalqaro dasturida O‘zbekiston ilk bor 2021-yilda ishtirok etib, dastur uchun qabul qilingan o‘rtacha ball (500)dan sezilarli darajada past (437 ball) natija qayd qilgan hamda 57 mamlakat orasida 49-o‘rinni egallagandi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OYECD) 2000-yildan buyon dunyo bo‘ylab 15 yoshli bolalarning bilim va ko‘nikmasini Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi (PISA) so‘rovi asosida baholab keladi. PISA natijalari eng samarali va tez rivojlanayotgan ta’lim tizimlarida o‘quvchilarning imkoniyatini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, raqamli ta’lim, ota-onalar ishtiroki, zo‘ravonlik va boshqa muammolar, gender tafovut, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar, ta’lim xarajati va boshqa ma’lumotlarni aks ettiradi. Tadqiqotlarda dunyoning 81 mamlakatidan 15 yoshli 690 mingga yaqin o‘quvchi ishtirok etgan.

2022-yilgi tadqiqotda o‘zbekistonlik o‘quvchilar ham ilk bor qatnashdi. O‘sha yil aprel-may oylarida yurtimizning turli hududidan tanlab olingan 202 maktabda PISA xalqaro baholash tadqiqoti o‘tkazildi. Unda asosiy e’tibor matematikaga qaratildi. Aksariyat o‘quvchilar bir soatda matematikaga oid savollarga javob bergan bo‘lsa, yana bir soat o‘qish savodxonligi, fan yoki ijodiy fikrlashga doir topshiriqlarni bajargan.

Natijalar e’lon qilingunga qadar katta qiziqish va kuchli hayajon bor edi. Nihoyat 2023-yil 5-dekabrda PISA-2022 natijalari jahon hamjamiyati e’tiboriga havola qilindi. Unga ko‘ra, O‘zbekistondagi 15 yoshli o‘quvchilar matematika fanidan jami 364 ballni qo‘lga kiritgan. Mazkur yo‘nalishda o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda yuqoriroq, maktablar joylashuvi bo‘yicha tahlil qilinganda, shahar maktablari qishloqlarnikidan yaxshiroq natija qayd etgan. O‘quvchilarning yo‘nalishlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichi bunday: matematikadan — 364, o‘qishdan — 336, tabiiy fanlardan — 355 ball. Bu natijalar o‘rtacha (472, 476, 485 ball)dan past ekani, albatta, dilni xira qiladi. Shunday bo‘lsa-da, dunyo miqyosida o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotda qatnashishning o‘zi bir jasorat, deging keladi. Biroq qo‘shni Qozog‘iston o‘quvchilarining mos ravishda 425, 386, 423 ballni qayd etib, Moldova, Qatar, Braziliya, Indoneziya kabi davlatlar yoshlarini ortda qoldirib, 42-o‘rinni egallagani odamda havas uyg‘otadi.

2030-yilga borib, PISA reytingida O‘zbekistonning ilg‘or 30 mamlakat qatoriga kirishiga erishish belgilangan bir paytda loqayd bo‘lib o‘tirish hech birimizga yarashmaydi. Shu o‘rinda davlatimiz tomonidan ta’limga qaratilgan e’tibor, yaratilgan sharoitni hisobga olsak, hech kimning nolishga haqqi yo‘q. Faqat bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish kun tartibida dolzarb bo‘lib turibdi.

PISA tadqiqoti o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini sinab ko‘rishdan ko‘ra, o‘rganganlarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo‘llay olishini baholashga qaratilgan. Unda ta’lim natijasi, o‘qitishdagi tenglik va o‘quvchilar muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadigan omillar haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Tadqiqotning asosiy maqsadi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash hamda samarali ta’lim amaliyotini ta’kidlash orqali mamlakatlarning o‘qitish tizimini yaxshilashga yordam berishdan iborat. Baholash natijasi ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni kelajak muammolariga puxtaroq tayyorlashga qaratilgan.

Xalqaro baholash tadqiqotlari o‘quvchilarning tanqidiy tahlil, kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish hamda matematik savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan iborat. Matematik savodxonlik shaxsning matematik fikrlash va real hayotdagi turli muammolarni yechishda matematik ifodalash, qo‘llash va sharhlay olish qobiliyatidir. U hodisalarni tasvirlash, tushuntirish va oldindan aytish uchun matematik tushunchalar, jarayonlar, dalil va vositalardan foydalanishni ichiga oladi.

Matematik savodxonlik odamlarga bu fanning hayotiy ahamiyatini tushuntirish, asosli fikr bildirish hamda amaliy va faol fikrlovchi inson uchun zarur qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Asosiy e’tibor turli vaziyatlarda mushohada va intuitsiyani talab qiluvchi turli yondashuvlardan foydalanib, matematik bilimlarni qo‘llashga qaratiladi. Buning uchun odatda maktabda o‘rganiladigan ancha-muncha matematik bilim zarur. Tadqiqotda o‘quvchilarga asosan, darslikdagi emas, balki hayotga xos (tibbiyot, uy-joy, sport va boshqa) amaliy vaziyatlar ko‘rib chiqiladi. Ko‘p hollarda nafaqat matematika, balki fizika, biologiya fanlarining turli mavzu va bo‘limlariga doir bilim hamda ko‘nikmalarni ishlatish talab etiladi.

PISA tadqiqotining matematik savodxonlikni aniqlovchi testlaridan bir namuna ko‘rib chiqaylik. Masalan, kompaniya vidjet ishlab chiqaradi va sotadi. Har bir vidjetni ishlab chiqarish narxi 5 dollarga tushadi. Shuningdek, kompaniya ishlab chiqarilgan vidjetlar sonidan qat’i nazar, operatsion chiqimlar uchun 100 AQSH dollari miqdorida xarajat qiladi. Kompaniya har bir vidjetni 10 dollardan sotadi.

1-savol: 20 ta vidjet ishlab chiqarishning umumiy qiymati qancha?

2-savol: Agar kompaniya 50 ta vidjet sotsa, uning umumiy daromadi qancha bo‘ladi?

3-savol: Agar kompaniya 40 ta vidjet sotsa, foydasi qancha bo‘ladi?

Endi esa bu misollarning yechimini ham ko‘rib chiqaylik. Berilgan muammo bosqichma-bosqich hal qilingandan so‘ng to‘g‘ri javoblar quyidagicha:

1-javob: 20 ta vidjet ishlab chiqarishning umumiy qiymati 200 dollar.

2-javob: 50 ta vidjetni sotishdan tushgan umumiy daromad 500 dollar.

3-javob. 40 ta vidjetni sotishdan olingan foyda 100 dollar.

Tadqiqotda beriladigan bunday testlar o‘quvchilarning maktabdagi matematika darsida olgan bilimini real hayotiy vaziyatlarda muammolarni hal etishda foydalanishga qaratilgan. Bunda bolalar oddiy hisob-kitobni amalga oshiribgina qolmay, teran fikr yuritib, tafakkur qiladi. Ulardan ijodiy yondashuv orqali katta muvaffaqiyatlarga erishish talab etiladi. Bunday masalalarni yechish uchun esa o‘quvchilar, albatta, maktab darsida yetarli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi shart. Bizning umumta’lim maktablarida esa faqat bilim berishga katta ahamiyat qaratiladi. Nazariy ma’lumotlar asosida dars o‘tish va o‘quvchilar fikrlash doirasining cheklangani ham ko‘nikma va malaka yetarli shakllanmaganini ko‘rsatadi. Finlyandiyalik ekspert, professor Petri Laoskorpi Qashqadaryo viloyati hokimi maslahatchisi bo‘lib ishlagan kezlari “Asosiy muammo shundaki, darslar haligacha nazariy metodlar asosida o‘tilyapti”, degan edi. Albatta, o‘qituvchilarning ko‘pi o‘ta bilimli, salohiyatli, mahoratli, hatto kasbining ustalari. Shunga qaramay, PISA-2022 tadqiqotida o‘quvchilarning natijalari oxirgi 10 talikdan o‘rin olgani o‘qituvchi sifatida meni juda qattiq o‘yga toldirdi. Endi ta’lim mas’ullari, O‘zbekiston kelajagini rivojlantirishni maqsad qilgan har bir inson, tegishli tashkilotlar vakillari o‘zini qanday his qilayotganini tasavvur qilyapman. Tan olish ham mardning ishi, deydi xalqimiz. Biz faqat darslikda berilgan ma’lumotlardan foydalanamiz, xolos. Misol uchun, matematika darsida o‘quvchilarga formula yodlatish va uni misol yechishda ishlatish bilan cheklanganmiz. O‘qish va adabiyot darslarida esa berilgan ma’lumotlarni shunchaki o‘qib gapirib berishdan, boshqa fanlardan ham konspekt qildirishdan nariga o‘tmaganmiz. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilarimizda bilim, ko‘nikma va malakani shakllantira olmaganmiz. Buning uchun kimnidir ayblashga endi kech bo‘ldi, nazarimda. Lekin muammoni bartaraf etishning eng maqbul yechimi sifatida, avvalo, o‘qituvchilarning o‘zi bunday muammoli vaziyatlardan chiqish va chin dildan xalq uchun mehnat qilishga bel bog‘lashi darkor. Gohida “O‘qisang o‘qi, o‘qimasang, ket”, degan iboralarni eshitib qolamiz. Haqiqiy o‘qituvchi bunday bo‘lmaydi. Mahorat bilan o‘quvchi ko‘ngliga yo‘l topib, uni yoki darsga, yoki hayotga qiziqtira oladi. O‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy ishlash, birdamlikni yo‘lga qo‘yadi. “Men emas, biz” g‘oyasini bolalar ongiga singdira olishi zarur. Bunday dars o‘tish uslubi bilan navbatdagi xalqaro baholash tadqiqotlarida yuqori natijalarga erishishga umid qilsa bo‘ladi. Prezident maktablariga kirish imtihoniga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonida muammoli vaziyatdan chiqishga doir testlarining birida bunday savol bor edi: “Olis, chekka tumandagi qishloqlarning birida ichimlik suv muammosi bor. Bu muammoni qanday hal qilish mumkin?

1) qishloqdan ko‘chib ketish kerak;

2) tuman hokimini ishdan bo‘shatish kerak;

3) qo‘shni qishloqdan suv tashib ishlatsa bo‘ladi;

4) yer sug‘oriladigan suvdan foydalanish kerak;

5) qishloqqa ichimlik suv chiqarish yo‘lini topish kerak.

Bu savolning maqbul javobi sizga kundek ravshan, lekin o‘quvchilarning hammasi ham to‘g‘ri javobni sizdek topa olmaydi. Chunki maktablarda bunday ko‘nikma berilmaydi. Aynan shuning uchun ham farzandlarimiz kasb va oliy o‘quv yurtini tanlashda, hayotiy muammolarni hal etishda aniq to‘g‘ri qarorga kela olmaydi. Hatto kattalar ham vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishni istamaydi. Ular ham o‘ziga qulay variantni tanlashni ma’qul ko‘radi. Ya’ni qiynalish va ozroq mehnat qilishni xohlamaydi. Oqibatda yuqoridagi savolga aniq javobni emas, o‘ziga qulay javob variantini ko‘rsatadilar. Aytmoqchimanki, ta’limda xalqaro darajada muvaffaqiyatga erishishning yagona yo‘li — birdamlik, ota-ona, o‘quvchi, o‘qituvchi va mahalla hamkorligi. Harakat va kuch ham birlikdadir!

Yo‘l bo‘yi xayolga turli savol kelaveradi: cho‘ponlik yumushmi yoki kasb? Yumush bo‘lsa, nega avloddan-avlodga o‘tib kelaveradi-yu sahro havosini bir olgan cho‘pon uni tark eta olmaydi? Kasb bo‘lsa, nega nafi ulug‘, e’tirofi haminqadar? Savol ortidan savol tug‘iladi...

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 6-yanvar, 4-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Sahro sayyohi

Ocherk

Doimgidek poyezdga chipta topolmagach, qaydasan Buxoro, deya mashinaga o‘tirdik. Yo‘l — fikrlash imkoniyati. Dunyo kun sayin o‘zgarmoqda. Bir qarich yer talash, mulk talash, qon talash. Onalar, otalar o‘lmoqda, begunoh go‘daklar o‘lmoqda. Yo‘q-yo‘q, ular o‘ldirilmoqda. Odam avlodlarining bugungi fojiasi ham shunda. Bunday chog‘da tinchlikning har oni g‘animatdek tuyilaveradi kishiga.

Yana o‘ylab qolamiz: dunyo soxta mulozamatlarga to‘lib bormoqda. Insoniy his-tuyg‘ular, qalb yorug‘ligi xiralashgandek go‘yo...

Shunday o‘ylar qurshovida uyquga cho‘mibmiz. Uyg‘onsak, tun chekinib, kun yorishib kelayotganini, qadim Buxoro zaminiga yaqinlashib qolganimizni ko‘rdik. Buyog‘i oz qoldi, ammo borar manzilimizgacha masofa qancha ekanini hozircha bilmaymiz.

Havo dilni yayratadi. Safarimiz Buxoroning qadim manzillarini ziyorat qilishdan boshlandi. Tushga yaqin mezbon hamrohlar bizni bozor tomon boshladi. To‘kis bozorlik qilindi. Avvalo, suvni mo‘l qilib oldik. Axir biz sahroga chiqib ketyapmiz, tunni o‘sha yerda o‘tkazamiz.

Darvoqe, biz sizga qayerga va nima maqsadda ketayotganimizni hali aytmabmiz. Toshkentdan Buxoroga bejiz yo‘l tortmadik. Maqsadimiz O‘rtacho‘l bag‘ridagi oddiy cho‘pon yigit hayotini ko‘rish, haqiqatni yozish.

Yo‘l bo‘yi xayolga turli savol kelaveradi: cho‘ponlik yumushmi yoki kasb? Yumush bo‘lsa, nega avloddan-avlodga o‘tib kelaveradi-yu sahro havosini bir olgan cho‘pon uni tark eta olmaydi? Kasb bo‘lsa, nega nafi ulug‘, e’tirofi haminqadar? Savol ortidan savol tug‘iladi...

Uzoq yo‘l bosib, nihoyat manzilga yetib kelganimizni Bahriddin cho‘ponning qo‘rasi yonida mashinasini to‘xtatgan haydovchimizning gapidan ilg‘aymiz: “Mana yetib keldik!”.

To‘rt tomoni ochiq sahro o‘rtasida suruvni sig‘dirgan qo‘ra-yu uning yonida

oddiygina qurilgan cho‘pon uyi. Bahriddin eski qadrdonlarini ko‘rgandek quchoqlashib ko‘rishadi. Xayolimga lip etib yoshligimda bobomdan eshitganim maqol keladi: “Tog‘-u toshda begona yo‘q”. Rostdan ham tog‘-u toshda yurgan kishilarning boshqalarga mehri bo‘lakcha bo‘ladi.

Bahriddin bilan qisqacha tanishgan bo‘lamiz. U bizni qo‘ra tomon boshlaydi — cho‘ponlar an’anasiga ko‘ra, qir oshib kelgan mehmonning oyog‘i ostiga jonliq so‘yilarkan. An’anani esa rad qilib bo‘libsiz!

Kuzak tugab, qish nafasi dasturxon yoza boshlagan palla. Bir maromda shamol esadi. Past-u baland qum barxanlari uzra quyosh kulchadek qizara boshlaydi. Qiziquvchan hamrohimiz talosh pallasiga oz qoldi, deydi. Suhbatimizni qizdirib turgan Bahriddin cho‘ponning qo‘ra tomonga o‘qtin-o‘qtin nazar solishi ko‘paya boradi. Bilsak, suruvni sahroga haydash payti yaqinlashgan.

Suruvni boshqarish sir-sinoatiga qiziqib kelmaganmizmi, biz ham cho‘ponga ergashdik. Kuzak oyoqlayotgan bo‘lishiga qaramay, cho‘l — kungay maydoni. Kungayda kun kuydirar, deb yengni yopuvchi kiyim kiyib, boshga shlyapani qo‘ndirib oldik. Endi birgalashib suruvni belgilangan manzilga boshlab borsak bo‘ldi.

Odamning rizqi bo‘lgani kabi chorvaning ham rizqi bo‘ladi. Bahriddin cho‘ponning suruviga rizq O‘rtacho‘lga sochilgan. Almashib-almashib turli o‘t o‘sadi. Yaratgan yomg‘irini darig‘ tutmasa, bas.

Suruvni haydab kelarkanmiz, jasaddor serkaning bo‘yniga osilgan qo‘ng‘iroq e’tiborimizni tortdi. Kerakli joyga yetib kelib, chorvani yoygandan keyin Bahriddindan bu haqda so‘ragan bo‘laman. Uning aytishicha, bu qo‘ng‘iroqlar taqilgan serka ergashtiruvchi vazifasini bajarar ekan. Qo‘ng‘iroq ham to‘g‘ri kelganiga taqilmasligini, faqat gavdasi nisbatan kattalari tanlab olinishini bildik. Bu qo‘ng‘iroqlarning yana bir vazifasi esa — cho‘pon aynan shuning ovozidan chorvasini boshqa cho‘ponning chorvasidan ajratadi.

Suruvni biriktirib, cho‘pon uychaga qarab yo‘l oldik. Sarguzashtsiz safar bo‘lmas deganlaridek, sahro ham bizga o‘zini “ko‘rsatib” qo‘ydi. Mashinamiz tekis

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O‘TING.

yo‘llarda yurib o‘rganmaganmi, cho‘l shamoli uyib yuborgan qumtepaga to‘rt oyog‘i botdi-yu qoldi. Xayriyat, hamrohlarimiz tog‘ni ursa, talqon qiladigan yigitlar. Yurakning quvvatini bilakka ulab, urina-urina mashinani izdan oldik.

Cho‘pon uychaga yetganda bizni “oyoq tagi” jonivorning go‘shtidan tayyorlangan cho‘poncha sho‘rva kutib turgan ekan. Turli restoranlarga boramiz, rang-barang taomlar yeymiz, lekin cho‘ponning chaylasida pishgan bu taomni bir umr unutmasak kerak. Sababi, bu taom hamma masalliqni qozonga bostirib, bir-biridan chiqqan suv ta’miga pishadi. Ham oson, ham rohatijon.

Taomdan so‘ng niyat qilib kelganimiz gulxan yoqib, atrofida suhbat qurishni tashkillashtiradigan bo‘ldik. Sahroning o‘ti ham, o‘tini ham yantoq. Bahriddin cho‘pon ildizi qalin-qalin yantoqlarni oldimizga uyib qo‘ydi. Bir suhbat bilan birga tugaydigan olov yoqdik. Cho‘ponning aytishicha, “tanqa choy”siz gulxan atrofidagi suhbatning maza-mazmuni bo‘lmas ekan. Tanqa choy degani o‘zimizning an’anaviy oftoboda qaynaydigan choyligini bildik. Uning “choydish” degan shaklini ham eshitganmiz.

Xullas, cho‘pon bizga ildiz oloviga qaynagan tanqa choydan, biz esa unga

ichimizdagi savollardan quyib berishga kelishdik. Uning aytishicha, cho‘ponlik bobomeros kasb, u mazkur avlodning uchinchi vakili. Maktabni bitirib, shu ishga qiziqqan Bahriddin bugun hayotini sahrosiz, suruvlarsiz tasavvur qila olmaydi. “Ba’zi-ba’zida hammasini tashlab, butunlay boshqa ish bilan shug‘ullanish fikri tug‘ilmaydimi?”, deya uni savolga tutaman. “Bunday paytlar ko‘p bo‘ladi, lekin baribir bu sahroni, qadrdon manzillarimni tashlab ketishga ko‘zim qiymaydi”, deydi cho‘pon. “Farzandlaringiz-chi”, deyman, “ularning o‘qishini, bilim olishini qo‘llab-quvvatlaysizmi?”. Bahriddin cho‘pon ko‘zlari porlab, kelajakda farzandlarini universitetda o‘qitishini, bu maqsad har doim o‘zi bilan ekanini ta’kidlaydi. Biroq qiziqqanidan chorvachilikni tanlasa ham, qarshiligi yo‘q.

Tun borgan sari salqinlashib, oy yog‘dusi lahza sayin tiniqib boradi. Tanamiz junjikkani bilan bu sarin havoga ham to‘ymaydi kishi. Jimjitlik qo‘ynida choy qaynashi-yu gulxanga tashlangan yantoqning “chasir-chusur”i eshitiladi. Cho‘pon — to miltillab turgan chiroqlargacha cho‘zilgan bepoyon cho‘lning tungi qorovuli. His etganga bu ham baxt, shunday emasmi?!

Cho‘pon desa, suruv desa, xayolga birinchi bo‘ri kelgani uchunmi, Bahriddin cho‘pondan O‘rtacho‘lda bo‘ri bormi, deb so‘rayman. Uning aytishicha, bu sahrolarda bo‘ri yo‘q, yirtqichlardan faqat tulki, chiyabo‘ri yashar ekan. Yozda esa ilonlar ko‘payadi.

Gap gapga ulanadi, suhbat cho‘ziladi. Orada 5-6 choynakni bo‘shatdik. Bu choyning ta’mi oldida manaman degan turk choylari ham ortda qoladi, desam ishoning. Olovning shiddati so‘nib qolgach, uni qum bilan ko‘mib o‘chirib, tunash uchun chaylaga qaytdik. Ham yo‘l charchog‘i, ham cho‘l charchog‘i qo‘shilib, uxlab qolganimizni sezmabmiz. Ertalab uyg‘onsak, quyosh ancha ko‘tarilib qolgan. Cho‘ponniki qush uyqu, degan gap to‘g‘ri ekan, Bahriddin cho‘pon allaqachon uyg‘onib, qo‘ra tomonlarda yumush bilan mashg‘ul yuribdi. Biz ham o‘rnimizdan turib, sahro tongini tomosha qilishga oshiqamiz. Ko‘z cheksizlikka, o‘pkang toza havoga to‘ymaydi.

— Ana, suruvingiz kelyapti, cho‘pon, — deydi sherigimiz imo qilib. Bahriddin cho‘pon bir lahza qo‘ng‘iroq ovoziga quloq solib, bu uning suruvi emasligini aytadi. Bir-birimizga qarab olamiz.

Suruv qaytgach, qo‘raga qamab, cho‘pon bilan nonushta qildik. Bugun tashrifimizning ikkinchi kuni, asrga safarimiz qariydi. Qaytish haqidagi o‘y esa ko‘ngilni o‘rtaydi. Lekin, noiloj, mehmonga yo‘l yaxshi. Vaqtning boridan esa unumli foydalanmoq kerak.

Yana xayol olib ketadi: makoni aniq, rizqi o‘zi bilan, oilasi yonida, to‘rt muchasi talafot ko‘rmagan odam — Bahriddin cho‘ponda ham muammo bormikan? Shu savolni beraman.

“Cho‘ponda cho‘l qayg‘usi bo‘ladi”, deydi Bahriddin cho‘pon. Uning aytishicha, qishda qor yog‘ishidan, bahor seryomg‘ir kelishidan dunyoda hech kim cho‘ponchalik suyunmaydi. Oxirgi yillarda ekologik vaziyat chorvaning ham mehnatini ancha og‘irlashtirib qo‘ydi. Suvning pasaygani sahroning ham avjini susaytirdi. Bugun suruvni faqat cho‘lning ozig‘i bilan to‘ydirish qiyin. Shu sababli cho‘ponlar yem-xashak sotib olishga majbur bo‘lmoqda. Klaster tarkibida yem-xashak olishning birja orqali emasligi esa uni olibsotarlardan qimmatga olishdan boshqa chora qoldirmayapti. Bahriddin cho‘pon mas’ullarning bu masalaga ham e’tibor berishidan umidvor.

Uning yana bir muammosi esa jun va teri bilan bog‘liq. “Yaqin-yaqingacha cho‘ponga “harna” daromad keltirib turgan bu xomashyolarni bugun hech kim so‘ramaydi. Bu mahsulotlar bo‘yicha davlatimiz ishlab chiqarish sohalarini kengaytirsa, men kabi minglab cho‘ponlarga ancha ko‘mak bo‘lardi”, deydi u.

Har kimning dardi o‘zi bilan, degandek, cho‘pon ham muammolardan xoli emas ekan. Lekin uning muammolarini hal qilish imkonsiz emas, mas’ullar bir g‘ayrat qilsa, bas...

Ana shu suhbatlarga berilib, ancha yo‘l bosib qo‘yibmiz. Charchoq bizni zabtiga olgani bilan cho‘ponning charchagani umuman sezilmas edi. Uning sog‘lomligiga, chiniqqaniga ich-ichimizdan havas qildik. Sog‘liqning birinchi kafolati harakat ekaniga mana yana bir isbot.

Sahro bizga xulosalar qilishga imkon yaratdi. Hamma gap ularni bajarishda. Bizni esa ikki kunda ancha qadrdon bo‘lib qolgan sahrodan poytaxtgacha olis yo‘l kutib turibdi. Bahriddin cho‘pon yana bir kecha tunab qolishimizni so‘raydi. Balki biz uni mana shu ikki kun davomida ovora qilib, urintirib qo‘ygandirmiz, biroq uning bu tashrifdan ko‘ngli ko‘tarilgani sezilib turardi. Ehtimol, bizga o‘xshab uning ham ko‘ngli xijil bo‘lar ketganimizdan keyin? Bunisi bizga noma’lum, axir qalb ham Yaratganniki.

Xayrlashib yo‘lga tushar ekanmiz, tag‘in o‘sha savol xayolimga keladi: cho‘ponlik yumushmi yo kasb? Yo‘q-yo‘q, cho‘ponlik ikkalasi ham emas. Agar yumush bo‘lganda Bahriddin cho‘pon kabi yigitlar bunga umrini bog‘lamagan bo‘lardi. Agar kasb bo‘lganda yetti yot begona bo‘lgan bizlarni u beminnat mehmon qilmas edi. Axir bu uning kasb vakolatiga kirmaydi-ku! Yo‘l bo‘yi shu savolga javob izlab ketaman. Mashina esa bizdan chekinib borayotgan bepoyon sahroni ortda qoldirib, bog‘-rog‘li manzillar sari kirib boradi...

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Munosabat

NOSHIRLARGA IMTIYOZ MA’RIFATLI KELAJAKKA YO‘LDIR

Hazrat Alisher Navoiy “Bo‘lsa kerak fikr ila shohi zamon”, deya bejiz ta’kidlamagan. Kitob va kitobxonlikka, nashr jarayoniga e’tibor kuchaygani sari yurtimizning jahon hamjamiyatidagi mavqei ham yuksalib bormoqda.

Nodir SUVONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot” nashriyoti rahbari, “Shuhrat” medali sohibi

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish tashabbusi yana bir bor qo‘llab-quvvatlandi. Ijodiy buyurtmalar, mualli va tarjimonlarga qalam haqi ko‘paytirilishi aytildi. Ayniqsa, nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilinishi borasida so‘z ketganida biz noshirlarning bu e’tibordan boshimiz ko‘kka yetdi.

ga yaxshi haq to‘lash, kitoblar saviyasini oshirish imkoni kengayadi.

Dunyoning 70 dan ortiq davlatida sohaga imtiyozlar berilgan. Chunki bu ijtimoiy muhim soha. Masalan, Buyuk Britaniyada nashriyotlar umuman soliqdan ozod qilingan bo‘lsa, Fransiyada 20 foiz o‘rniga 5,7 foiz soliq to‘lashadi. Shimoliy Yevropa davlatlarida soliq imtiyozlaridan tashqari davlat byudjeti hisobidan har bir chiqqan kitobdan 2000 nusxa sotib olinib, kutubxonalarga tarqatiladi.

Nashriyotimiz tomonidan har yili 150 dan ziyod nomdagi yangi adabiy-badiiy kitoblar nashr etiladi. Har yili o‘ndan ortiq yosh ijodkorning birinchi kitobi 5000 nusxada chop etilayotgani adabiyot maydoniga endi kirib kelayotganlar uchun juda katta tayanch bo‘lmoqda.

Yaqinda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida “Mening birinchi kitobim” loyihasining navbatdagi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Abdurahmon Qoyliboyev, Mavluda Boychayeva, Zikrilla Mamatov, Ahmad Obid o‘g‘li, Durdona Bobomurodova, Erkin Hojimuhammad, Farangiz Avazmatova bilan suhbatlashar ekanman, ularning ko‘zlaridagi quvonchni, kelajakka bo‘lgan yorug‘ ishochni ko‘rib, ilk ijodiy namunalarim gazetalarda chop etilgan baxtli damlarimni esladim.

2023-yildagi yorqin nashrlar qatorida 100 jildli “Turkiy adabiyot durdonalari”, 30 jilddan iborat “Mustaqillik davri navoiyshunosligi”, “Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari”, “Mard askarga sovg‘a” singari adabiy majmualar ham bor. Mazkur

Ijodiy davralarda nashriyotlarga moliyaviy yordam va soliq imtiyozlari masalasi ko‘p bora muhokama hamda munozaralar mavzusi bo‘ladi. Axir bugun noshirlik ham biznes. Xalqimiz qancha ko‘p kitob o‘qisa, talab ham shuncha oshib boradi. Agar talab kamaysa, nashriyotlar moliyaviy tomondan og‘ir ahvolga tushib qolishi aniq. Natijada ular tarjimon, musahhih, muharrir kabi xodimlarga to‘lanadigan haqdan, qog‘ozdan, umuman, mumkin bo‘lgan hamma joydan pul tejab kun kechiradi va kitob saviyasi, sifatida muammo ko‘paya boshlaydi. Aksar nashriyotlar qarzga botgani, xodimlari bir necha oylab maosh olmayotgani bois, professional muharrir va tarjimonlar boshqa joyga ishga o‘tib ketayotgani haqiqat edi. Masalan, bitta kitob potensial daromad keltirishi uchun kamida 5000-10 000 nusxada sotilishi kerak, lekin aksar kitoblar tiraji 1000 taga ham bormayotgandi. Endi soliq imtiyozi bois, xodimlarto‘plamlar chiqishi juda katta ma’naviy-ma’rifiy voqelik bo‘ldi.

Yig‘ilishda jadidlar hayoti, ilmiy-badiiy merosini keng targ‘ib etish xususida ham so‘z bordi. Shu bois, kelgusi yilda nashriyotimiz bu yo‘nalishda ko‘plab asarlar chop etishni ko‘zlamoqda.

2023-yilda “Ma’rifat ulashib” va “Kitob karvoni” aksiyalari doirasida Yozuvchilar uyushmasi tomonidan bir milliondan oshiq kitob o‘quvchilarga bepul taqdim etilganini aytish barobarida bu tadbirlarning amaliy natijasi allaqachon bo‘y ko‘rsata boshlaganidan bir misol keltirmoqchiman.

Yaqinda nashriyotimizga Sergeli tumanidagi 300-maktabda o‘qiydigan ijodkor o‘smir Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchiga bag‘ishlangan ilmiy-fantastik qissasini ko‘tarib kirib keldi. U bilan suhbatlashar ekanman, bilimli, salohiyatli, juda katta maqsadlar sari dadil qadam tashlayotgan arslonyurak yoshlar ko‘payib borayotganidan xursand bo‘ldim.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 13.
8848 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Yunus Bo‘ronov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05